

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIIYAT KAFEDRASI

DOVIDXONOV MAHMUDXON MUXRIDDINXON O`G`LI

**ISTIQLOL ARAFASI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA O`ZBEK XALQI
SIYOSIIY MADANIYATI.
BITIRUV MALAKAVIIY ISHI**

Ilmiy rahbar: Mansurov Ulug`bek

Namangan 2014

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-6
I BOB. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar	
1.1. Siyosiy mustaqillikning qo'lga kiritilishi.....	7-20
1.2. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllanishi.....	20-30
II BOB. Mustaqillik va milliy siyosiy qarashlar.	
2.1. Fuqarolarni siyosiy ongini shakllantirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarini o'rni va faoliyati.....	31-38
2.2. Istiqlol yillarida O'zbekistondagi siyosiy partiyalar, siyosiy qarashlar va siyosiy madaniyatning o'sish tendensiyalari.....	39-48
Xulosa.....	48-50
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	52-54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik oliy ne'mat. Bu maqomga erishish muayyan tarixiy davrni qamrab olib, u ko'pdan ko'p qarama-qarshiliklar, kurashlar, qurbonliklar berish evaziga erishilgan. Shuni hisobga olib biz ham mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish arafasida va undan keyingi dastlabki yillarida olib borgan jo'shqin va serqirra siyosiy-ijtimoiy faoliyatini aks ettirgan jarayonlarni bayon etishni maqsad qildik.

Mavzuni ahamiyati haqida gapirganda, biz ayni murakkab tarixiy davrlarni ijtimoiy mohiyati, ilmiy-nazariy qimmatini va ahamiyati naqadar beqiyos ekanligini, bugun, vaqt o'tib, dunyoni boshqa mustaqil davlatlarida sodir bo'layotgan siyosiy bo'xronlar, fuqarolik urushlari avj olib, davlat siyosiy tizimi falaj holatga kelib qolganligi, demokratik qadryatlarni ijtimoiy hayotga, ijtimoiy voqelikka zid ravishda tadbiq qilishga urinish oqibatida kelib chiqqan turli vayronagarchiliklarni bashariyat uchun ayanchli yakun topayotganligini, vatanimiz mustaqilligini 24 yillik sanasini nishonlayotgan bir paytga to'g'ri kelgani bilan izohlashimiz mumkin. Qolaversa, hozirgi kunda butun jahonda bo'lgani kabi mustaqil O'zbekistonda ham yuz berayotgan integratsiyalashuv jarayonlari davlatlararo munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarilganligi bilan ajralib turadi.

Mustaqillik e'lon qilingach, o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi mustaqil ravishda belgilashdan iborat bo'lgan huquqni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Bosib o'tilgan dastlabki istiqlol yillari O'zbekistonda milliy davlat qurilishi, xalqning milliy o'zligini anglashning ortishi, ko'p asrlik ma'naviy-ahloqiy qadryatlarining qayta tiklanish davri bo'ldi¹. Fidokorona kurash yakuni bo'lgan mustaqillik asrlar mobaynida uning uchun kurashib kelgan xalqqa keng tarixiy imkoniyatlar ochib berdi. Mustaqillik O'zbekiston xalqiga qaddini baland tutish, o'z yerinining haqiqiy xo'jayini deb his qilish, o'zbek xalqiga chinakam qadr-qimmat tuyg'usini, til va ma'naviyatini qaytarish imkonini berdi. Mustaqil O'zbekiston milliy davlat qurilishining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida demokratiya qadryatlarini,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –B. 5

shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish yo'lini tanladi. Biroq, milliy davlatchilikning tiklanishi, ma'naviyatli taraqqiyotning umuminsoniyat yo'lga solinishi nihoyatda murakkab vaziyatlarda kechdi. Amalda ko'p narsalarni yangidan boshlashga to'g'ri keldi. Biz anashu jarayonlar va bu jarayonlardagi milliy siyosiy qarashlarimiz asosidaga yondashuv, xalqimizni mustaqillik yillaridagi siyosiy madaniyati va uning o'sish, rivojlanish, sayqallanish omillarini kuzatishlarimiz asosidagi tahlillarimizni o'rtoqlashamiz. Bu mavzu orqali butun boshli barcha jarayonlarni qamrab ololmasakda, barcha jarayonlar uchun umumiylikni gavdalantira olsak, o'zimizni behad baxtiyor his etgan bo'lur edik.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda butun jahon mamlakatlari turli xil muammolar girdobida qolib chiqish yo'lini ahtarmoqda. Shulardan eng yirigi hali ham o'zining ijobiy yechimini topolmaganidan biri bu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidir. Ammo bu inqiroz bizni diyorimizni chetlab o'tgani jahon afkor ommasini taajjubga solib mamlakatimizga bo'lgan qiziqish ham orttishiga sabab bo'lmoqda. Ko'plab xalqaro ekspertlar, tadqiqot institutlari, iqtisodchi va siyosatdonlar mamlakatimizni bu jarayonlardagi tanlagan pozitsiyasi, muhim chora-tadbirlari, xususan, "o'zbek moduli"ni o'rganib ko'plab broshura, kitoblar yozishlari uchun sabab bo'lmoqda. Biz aynan shu masalalarga bag'ishlangan risolalar, kitoblar, ilmiy tadqiqotlar bilan tanishib chiqdik va anchayin ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bu sohada O'zbekistonda yaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, albatta, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning mazkur masalaga bag'ishlangan bir qator asarlarini keltirib o'tish zarur².

² Karimov I.A. O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li.-Toshkent: O'zbekiston, 1992; Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997; Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -Toshkent: O'zbekiston, 1999; Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. -Toshkent: O'zbekiston, 2002; Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008; Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2012.

Mavzuni yoritishda Respublikamiz olimlari, amaliyotchilarining mazkur masalaning u yoki bu jihatlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqot ishlari, monografiyalari, ilmiy maqolalari, vaqtli nashrlar materiallaridan ham keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishining maqsadi istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida o'zbek xalqi siyosiy madaniyati masalalarini tahlil qilishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixini tahlil etish;
- O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllanishi masalalarini o'rganish;
- Fuqarolarni siyosiy ongini shakllantirish va ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarini o'rni hamda faoliyatini yoritib berish;
- Istiqlol yillarida O'zbekistondagi siyosiy partiyalar, siyosiy qarashlar va siyosiy madaniyatining o'sish tendensiyalarini manbalar asosida tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi. Prezident I.A.Karimovning asarlari, xususan “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”, “O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida”, “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarlari, boshqa mualliflarni risolalari, ilmiy maqolalar, hukumat qarorlari tadqiqot ishini o'rganishda muhim nazariy uslubiy asos bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi – bitiruv malakaviy ishi, kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar.

1.1. Siyosiy mustaqillikning qo'lga kiritilishi.

Ma'lumki, mamlakatimiz rahbari Islom Karimov respublikamiz rahbari sifatida ish boshlagan paytda (1989-yil 23-iyun) o'lkamizda uzoq yillar davomida hukm surgan kommunistik mafkura va faqat hom ashyo yetkazib berishga asoslangan bir yoqlama iqtisodiy siyosat har bir sohada o'zining halokatli salbiy ta'sirini keng miqyosda ko'rsata boshlagan edi. Bu kabi gay'riinsoniy munosabat tufayli xalqimiz ko'p talofat ko'rgani barchaga ayon. Bu davrning og'ir va ayanchli ijtimoiy-siyosiy manzarasiga Islom Karimov shunday baho beradi: "Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turibdi. Biz bu raqamlarni ilgari ham necha martalab aytganmiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rta darajadan ikki hissa past. Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish o'rtacha Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi"³.

Yuqoridagi iqtisodiyotni tan ahvolga kelib qolganligiga ishorat beruvchi statistik ma'lumotlar 1990-yilning 2-kvartalidagi oxirgi hisob-kitoblar asosidagi holatni aks ettirgan. Ko'rinib turibdiki davlat atalmish institutni iqtisodiyoti inqiroz

³ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –B. 5-6.

holatiga kelganligi bu uning ortiq davlat degan maqomga qobil emasligidan dalolat beradi. Bu birgina davlatni iqtisodiyotidagi tanazzulni ifoda etib berayotgan bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar esa, undan anchayin ilgari tanazzulga yuz tutgani tayin edi.

Aytmoqchimizki, mustaqillikka erishish jamiyatni barcha strukturalardagi zil ketishini ham alohida e'tirof etsak to'g'ri baholagan bo'lamiz. Lekin o'zbek xalqining mustaqillikka bo'lgan intilishlari, shubhasiz, Gorbachov va unig atrofidagi amaldorlarga xush kelmas edi. Ularning endigi vazifasi mamlakatda turli siyosiy provakatsiyalar uyushtirib, etnik qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirish va shu orqali mamlakatni mustaqil bo'lishiga yo'l bermaslik, balki paysalga solishga urinib ko'rdilar. Bunday "vazifa"ni bajarish SSSR davlatining so'nggi kunlarida bir guruh imperiyaparastlardan tarkib topgan "ГКЧП" ga topshirildi⁴

Shunday qilib, siyosiy "o'yin" tashkilotchilari dastlabki yurishni Farg'onadan boshladilar. 1989-yil may oyida Farg'ona viloyatida buzg'unchi kuchlar tomonidan tashkil etilgan ommaviy tartibsizliklar iyunning oxiriga kelib o'zining kulminatsion nuqtasiga borib yetdi. Kechagina respublikamiz rahbari etib saylangan Islom Karimov ishga kirishgan kunning ertasigayoq, ya'ni 24-iyun kuni O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida katta majlis o'tkazdi. 25-iyun kuni esa Islom Karimov Farg'onaga yo'l oldi va voqelikni bevosita sabablarini o'rgana boshladi. Agar o'sha yillar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Farg'ona voqealari haqida shov-shuv ko'targanlar, shunday qonli fojia hisobidan obro' topish, o'zining g'arazli manfaatlariga erishishga, xalqimizni badnom qilishga uringan kimsalar ko'p bo'lgan. Islom Karimov bu borada asl haqiqatdan voqif bo'lib, fojia oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqadi va izchil amalga oshiradi. Farg'onadagi yurish muvaffaqiyatsiz amalga oshganidan, aniqrog'i, bu asl xalq g'alayoni emas, aksincha, fitnachilarni ishi ekanligi ma'lum bo'lib qolgach, hafsalasi qolmagan ГКЧП nishon nuqtalarini Guliston, Bo'ka, Namanganga ko'chirdi. ГКЧПning asosiy maqsadi – eski totalitar sovet tuzumini

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –B. 8.

qanday qilib bo'lsa ham aslo o'zgartirmasdan saqlab qolishdan iborat edi⁵. SSSR vitse-prezidenti G.Yanayev, Ministrlar Sovetining raisi V.Pavlov, KGB raisi V.Kryuchkov, Mudofaa vaziri D.Yazov, Ichki Ishlar vaziri B.Pugo va boshqa yuksak lavozimdagi mas'ul partiya va davlat arboblari M.Gorbashev boshchiligida qonuniy hokimiyatni ag'darib, butun Ittifoq hududida ΓKЧП ning farmoyish va ko'rsatmalari amal qilishi haqida qarorlar qabul etib, barcha respublikalar, viloyat va tumanlarda ularning so'zsiz ijro etilishini talab qilishdi. Ayni shu paytda, ya'ni, 1991-yilning 17-19-avgust kunlari O'zbekiston SSR Prezidenti Islom Karimov Hindistonga rasmiy tashrif bilan borgan edi. Aytish kerakki, bu tashrif O'zbekiston Prezidentining xorijga qilgan birinchi mustaqil – tarixiy tashrifi edi.

Favqulodda davlat qo'mitasining murojaati Yurtboshimiz Hindistonda bo'lgan bir paytda – 19-avgust e'lon qilindi. Afsuski, O'zbekiston rahbarining safarda ekanidan foydalanib, ΓKЧПning noqonuniy qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan rahbarlar yurtimizda ham topildi. 1991-yil 19-avgust kuni O'zbekiston SSR vitse-prezidenti SH.Mirsaidov va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasining ikkinchi kotibi A.Yefimovning imzosi bilan O'zbekiston SSRning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSRga, O'zbekiston SSR hududida SSSRdan Favqulodda holat davlat qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida ko'rsatma yuboriladi. Islom Karimov Agradan 19-avgust kuni zudlik bilan Toshkentga qaytadi va aeroportdan to'g'ri hukumat binosiga kelib, kechqurun hukumat a'zolari bilan uchrashadi hamda O'zbekiston SSR hududida ΓKЧПning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko'rsatma beradi. Shu tariqa, ΓKЧП gumashtalari O'zbekiston hukumati nomidan qabul qilgan barcha hujjatlar bekor qilinadi.

Shunday qilib, 1991-yil 20-iyunda “Mustaqillik deklaratsiyasi”, 1991-yil 31-avgustda “Davlat mustaqilligi asoslari haqida” Konstitutsiyaviy qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilindi⁶. 1991 yil 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb e'lon qilindi. Xalqimizning asrlar osha

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –B. 22.

⁶ Saidov.A.X. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – Toshkent: Sharq, 2000. –B.7.

orzusi amalga oshdi. Istiqlol tufayli o'zbek xalqining ajralmas huquqi – o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ro'yobga chiqdi. O'zbekiston tinch parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy milliy davlatchiligiga erishdi. Bu yurtboshimiz ta'kidlagandek, xalqimizning ko'p ming yillik tarixida buyuk voqeadir.

Sovet sotsialistik davlati xalqimiz hayotida chetdan zo'ravonlik bilan mustamlakachilik maqsadida joriy etilgan edi. Bu davlatning na shakli, na mohiyati xalqimizning boy va teran ahloqiy, ma'naviy, ruhiy va huquqiy qadriyatlariga to'g'ri kelmaydigan tizimga asoslangan edi. Ammo, mustaqil bo'lganimiz bilan hamma muammo bir deganda hal bo'lib ketmadi. 1991-yilning oxirlarida Namanaganda sodir bo'lgan voqealar haqida to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Dekabr kunlaridan birida diniy mutaassiblar rahbarligidagi olomon sobiq Namangan obkomi (hozirgi Namangan viloyati hokimligi) binosini egallab oladi. Zal markaziga: "Yashasin islom davlati!" degan katta plakat osib qo'yilgan, aynan shu shior bilan boshlangan ko'psoatlik yig'in tugay demasdi. Unda hokimiyat tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan beshta talab ilgari suriladi: birinchisi – bu yerga prezident Islom Karimov kelishi; ikkinchisi – u Qur'on bilan islomga sodiqligi to'g'risida qasam ichishi; hozirning o'zida O'zbekistonni islom davlati deb e'lon qilishi; uchinchi – masjidlarga qatnash musulmonlar, jumladan, davlat rahbarlari uchun majburiy bo'lishi, ular ham xalq bilan birga namoz o'qishi; to'rtinchisi – juma dam olish kuni deb e'lon qilinishi; beshinchisi – zudlik bilan diniy maktablar ochish.

Endi Namangan voqealarini yoritgan jurnalist Oleg Yakubovni ko'rganlari haqidagi hikoyasini eshitsak: "Namanganda ro'y berayotgan voqealar to'g'risida Prezident Karimovga zudlik bilan xabar berishdi. U tabiatan dovyurak va irodali bo'lgani uchun bu safar ham zum o'tmasdan: "Namanganga boraman!" degan qarorga keldi. Yordamchilari va Prezident xavfsizlik xizmati boshlig'I uni bu xatarli safardan qaytarmoqchi bo'lishdi, ammo Prezident: "Samolyotni tayyorlanglar!" deb buyruq berdi. Oradan bir soat o'tib, u Namanganga yetib keldi. O'zining jazosizligidan boshi aylanib qolgan ekstremistlar darrov bir talabni ilgari surishdi: "Biz faqat Prezident bilan gaplashmoqchimiz, zalga u bir o'zi kirsin".

Islom Abdug'aniyevich yelka qisdi-da, indamay oldinga yurib ketdi. Uning qo'riqchilaridan faqat bir kishigina zalga kirib olishga muvaffaq bo'ldi, lekin bu hol Prezidentni zarracha ham tashvishga solmayotganga o'xshardi. U sirtidan juda xotirjam ko'rinar edi, parlamentni zudlik bilan tarqatib yuborish va islom davlatini e'lon qilish to'g'risidagi farmonga imzo chekish to'g'risidagi talablarni jim turib eshitdi. Ekstremistlar, bu talablar bajarilmaguncha, zaldan chiqmaysiz, deganda ham uning yuzida hech qanday o'zgarish sezilmadi. Zal g'azab otiga minganidan g'ala-g'ovurda Islom Karimovning dastlabki so'zlarini eshitib bo'lmadi, biroq keyinchalik hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. "Men hech qanaqa do'q-po'pisadan qo'rqmayman – deb gap boshladi Islom Abdug'aniyevich. – Hozir bu yerdan ketish uchun men sizlarni aldashim, talablaringizga roziman, deyishim, farmonga qo'l qo'yishim va tinchgina ketishim, so'ngra esa bekor qilishim ham mumkin edi yoki bo'lmasa boshqacha yo'l tutishim – bu yerdan ketib harbiy qo'shin va militsiyani chaqirsam, ular kelib tartib o'rnatgan bo'lardi. Lekin men – Prezidentman va erkak kishiman, bo'lar-bo'lmasga va'da beravermayman, so'zimda turishga o'rganganman. Mamlakatda davlat tuzumini o'zgartirish to'g'risida farmon chiqarish mening vakolatinga kirmaydi. Bunday masalarni Oliy Kengash hal etadi. Biz Oliy Kengashni yig'amiz, sizlar esa o'z vakillaringizni Toshkentga yuborasiz. Majlisda Sizlarning dalillaringizni diqqat bilan eshitishga va birgalikda qaror qabul qilishga va'da beraman".⁷

Namangandagi voqealardan ko'rinib turibdiki, diniy mutaassiblarcha harakat zamirida dinni yaxshi tushunmaslik yotadi. Yoki aksincha dinni aks tadbiq etish mana shunday beboshliklarga zamin yaratib beradi. Xuddi shu voqealarni ayrim moskvalik va g'arblik jurnalistlar oddiy, soddadil diniy faollar uchragan qatag'on daxshatlarini ko'pirtirib yozishdi. Afsuski ular o'sha faollar ilhomlantirgan olomon Namanganda olti nafar yosh rus askarini tilka-pora qilib tashlaganini, mesxeti turklarning farzandlarini tiriklayin yoqib yuborganini ko'rishmagan, hech kursa o'zlari shunday olomonlar ichiga tushib ko'rishganda edi bu tarzda shou-shuv ko'tarishdan tiyingan bo'lar edilar. Namangandagi voqealar xususida so'z

⁷ Oleg Yakubov. Волчья стая. Кровавый след террора. Вече nashriyoti, 1999-yil. –B. 40-42

yuritganda, faqatgina namoyishchi xalqni harakati degan aksariyat yondashuvga qo'shilmaymiz. Masalaning bir uchi 1990-yillarda tuzilgan "Adolat" jamiyati nomida faoliyat yuritib kelgan jinoiy guruh faoliyati bilan ham uzviy bog'liqlig nuqtasi mavjud. Ushbu guruh o'zlaricha aholi ichida tartib o'rnatishga bel bog'lagan yoshlardan tarkib topgan edi. Ular tartibni shariat qonunlari asosida o'rnatilajaklarini e'lon qilib ish boshlagan edilar. Dastlabki faoliyat natijalarida ular o'g'ri-bezorilarga qarshi hujum harakatlarini boshlab yubordilar. Ya'ni, ular turli tasdiqlanmagan ma'lumot asosida mo'tadil diniy qarashdagi shaxslarni o'g'riga, bezoriga, munofiqqa chiqarib jazoni ham o'zlari ijro etishardi. Bu vaqtda mazkur guruhni faoliyatiga befarq qarash yetmagandek, u bilan hamkorlik qilib, ularni dastaklagan viloyat, shahar hokimliklarida mutasaddi rahbarlar ham bo'lgan. Bu holat esa amalda mahalliy hokimiyat jinoiy guruh bilan birga ishlagan deb malakalanishi mumkin. "Adolat" jamiyatini chetdan kim moliyalaganligiga dahldor aniq ma'lumotga ega emas biz, ammo tahlilchilarni fikriga tayanadigan bo'lsak, mazkur guruh ixtiyorida faoliyatni yaxshi yo'lga qo'yish uchun yetarli resurslarga ega bo'lganini keltirish mumkin. Namangan voqealarini keltirib chiqarishda mazkur guruh yetakchilari asosiy rol o'ynagan.

Hozirgi zamon ilm-fani bashariyat tarixining qaysi bir davriga murojaat qilmasin, ularning barchasida konfliktlarning mavjud ekanligiga duch keladi. Aniqroq qilib aytganda, konflikt jamiyat rivojining doimiy hamrohi bo'lganligiga amin bo'lamiz. Ilmiy-siyosiy adabiyotlarda "konflikt" tushunchasi turlicha ta'riflanadi. Shu bois ham "konflikt" atamasini ko'plab ma'nodagi ta'riflari bor.⁸ Ulardan eng asosiysi mazkur atamaning tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshilik, avvalo ijtimoiy ziddiyat tushunchasiga yaqinligidir.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning yuzaga kelishi asosida muayyan konfliktlarni, qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdek murakkab jarayon yotadi. Xuddi mana shu murakkab jarayon O'zbekiston mustaqillikka erishish tomon harakat boshlagan davrlarda bo'y ko'rsatdi. Mustaqillikka erishish pallasidagi

⁸ Jumayev R.Z, Ubaydullayev U.A, Xo'janov B.A. Konfliktologiya asoslari. –Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2000. –B. 37.

ushbu turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar haqida to'xtalib o'tsak. Gorbachevcha qayta qurish jamiyatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirdi. Ozod so'z va erkin fikr tamoyilining shakllanishiga, shubhasiz, sharoit yaratdi. Bunday o'ziga xos erkinlik totalitar tazyiq ostida qolgan xalq tuyg'ularini junbushga keltirib yubordi. Bu eng avvalo ziyolilar faoliyatida aniqroq ko'zga tashlandi. Jumladan, O'zbekistonda yozuvchilar va olimlarning faollashuv jarayoni paydo bo'ldi. Ana shunday sharoitda Muhammad Solih (Salay Madaminov), Ahmad A'zam, Abdurahim Po'latov, Bek Toshmuhammedov, Zohid Haqnazarov singari ijodiy ziyolilar oldin o'zlarini milliy manfaatlarni himoya qilish yo'lidagi fidoiylar qilib ko'rsatishdi. So'ng ma'lum ma'noda "avtoritet"ga aylangach, hokimiyat uchun intilishga harakat qilishdi. Dastlab Toshkentdagi "Talabalar shaharchasi"da til bayramlarini o'tkazish, o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish kabi masalalar atrofida tashkil etilgan munozaralar asta-sekinlik bilan mitingbozliklarga aylantirildi. Natijada 1988-yilning 11-noyabrida "Birlik" xalq harakatini tuzish haqida Qaror qabul qilindi. 1988-yilning 20-dekabrida esa Toshkentdagi talabalarni birinchi mitingi bo'lib o'tdi. Unda "Muhammad Solih respublika rahbarligiga loyiq" qabilidagi da'volar o'rta tashlandi.

1989-yilning sentabrida "Birlik" xalq harakati ikkiga bo'lindi va uning tarkibidan chiqqan Muhammad Solih boshchiligida "Erk" demokratik partiyasi tashkil etildi. Keyinroq bu har ikki tashkilot Adliya vazirligidan ro'yhatdan o'tib, huquqiy vakolatga ega bo'ldi.⁹ Aslini olganda, Prezident Islom Karimov ayni ana shu muxolif guruhlar bilan hamkorlik qilish, jamiyat hayotini izga solishda, mavjud muammolarni hal etishda va qiyinchiliklarni bartaraf etishda ular bilan yaelkama-yelka turib ishlash istagini bildirdi. Biroq, bunday kelishuvni birlikchilar ham, "Erk"chilar ham keskin ravishda rad etishdi. Jamiyat hayotidagi kamchilik va nuqsonlardan foydalanib, xalqning ozurda va shikasta qalbiga ta'sir etish yo'li orqali hokimiyatni egallashga harakat qilishdi. Ana shu tarzda rasmiy hokimiyat bilan norasmiy kuchlar o'rtasidagi kelishmovchilik vujudga keldi.

⁹ Jo'rayev N. Tafakkurdagi evrilish. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 124

Turli qarama-qarshi g'oyalar bilan yashayotgan siyosiy guruhlar va partiyalar agar chindan ham xalq va mamlakat manfaatini ko'zlaydigan bo'lishsa, ular o'tish davrida, jamiyat tubdan yangilanayotgan bir sharoitda birlashib faoliyat ko'rsatadilar. Chunki, eng avvalo jamiyatni sifat jihatidan sog'lomlashtirish, uning har tomonlama taraqqiyotiga zamin yaratish, umumiy manfaatlar mazmunini belgilaydi va ana shu maqsad ularni birlashtirib harakat qilishga da'vat etadi. Odamlar turmush tarzidagi tub burilishlar bevosita ularning ongi va tafakkurida, jamiyatdagi ijtimoiy muhit, ijtimoiy munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Ammo bunday ijobiy burilish shakllangunga qadar g'oyaviy po'rtanalar, siyosiy bo'hronlar, iqtisodiy tanglik, ma'naviy turg'unliklarga og'ir-vazminlik, qat'iy iroda va siyosiy yetuklik namunasini ko'rsata olish kata ahamiyatga ega ekanligini hayot ko'rsatmoqda.

Saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida sobiq SSSR hududida junbushga kelgan siyosiy vasvasalar va demokratik o'yinlari natijasi O'zbekistonda "Erk" demokratik partiyasi, "Birlik" xalq harakati vujudaga kelgan edi. Ular o'z maqsad va intilishlari bilan mavjud siyosiy rejimga, u yetmish yil mobaynida xalq boshiga keltirgan kulfatlarga qarshi edi. Mazkur guruhlar ma'muriy-buyruqbozlik usuliga asoslangan davlat boshqaruviga, yakkahokimlik va g'oyaviy hukmdorlik egariga minib olgan kommunistik mafkuraga qarshi holda faoliyat ko'rsatdilar. Biroq, bu faoliyat konstruktiv harakat, hukumat darajasiga ko'tarilgan siyosiy nufuz aql-idrok ko'rigi sifatida emas, balki dahanaki janglar, ehtirosli shiorbozliklar, ibtidoiy hayqiriqlar shaklida dunyoga keldi. Bu jamiyat hayoti uchun ham, xalq hayoti uchun ham jiddiy xavf tug'dirdi.

Har qanday sharoitda ham demokratiyaga sog'lom munosabatda bo'lish, demokratiyani yuksak ma'naviyat, aql-idrok mezonini, siyosiy yetuklik va tom ma'noda xalq manfaatlarini yo'lidagi noyob hodisa ekanligini anglamoq zarur. Ana shu xulosalardan kelib chiqib va mustaqillikni dastlabki yillarida O'zbekistonda yuzaga kelgan og'ir ijtimoiy-siyosiy vaziyat, jazavalar, bo'hronlar oqibatlarini hisobga olib Prezident Islom Karimov mamlakat Oliy Kengashining 1993-yil 2-3-iyul kunlari bo'lib o'tgan X sessiyasida shunday degan edi: "Demokratiya ustun

bo'lgan jamiyatda konstruktiv sog'lom oppozitsiyaning roli juda katta bo'ladi. Bunday oppozitsiya jamiyatning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga hissa qo'shadi.

Ayni zamonda, mavjud Konstitutsiyaviy hokimiyatni kuch bilan ag'darishni maqsad qilib olgan partiya va harakatlar, shuni aniq aytishimiz kerak, taqiqlab qo'yilishi kerak. Respublika chegaralari daxlsizligi va xavfsizligiga qarshi kurashuvchi, fashizm, irqchilik, zo'ravonlik, milliy va diniy nizolarni targ'ib etuvchi, demokratik erkinliklar va xalq ma'naviyati asoslariga tajovuz etuvchi har qanday partiya va jamoat harakatlari qonunga xilof deb e'lon qilinishi shart". Yuqoridagi so'zlarda jon bor. Har bir mamlakatni, siyosiy tizimini barbod qilishda, albatta ichki nizolar tashqi dushmanlar uchun qo'l kelishi turgan gap. Aytaylik, siyosiy rejimga radikal siyosiy muxolif partiyalarni faoliyati va o'z "maqsadi"ga erishish yo'lidagi barcha harajatlarni o'z bo'yniga olaman, moddiy qo'llab-quvvatlayman degan "xorijlik sarmoyadorlar" yetarlicha topiladi. Bordi-yu bunday vaziyatda "sarmoyadorlar"ni mamlakat ichki ishlariga aralashuvini tanqid nishoniga olishga bo'lgan urinishni, ular: "Biz hech qanday g'ayri maqsad ko'zlamaymiz, biz demokratik tamoyillar qaror topishi va inson huquqlari tarafdorimiz" – deb, o'zlarini najotkor farishta niqoblarini ishga solishadi. Shunday holatlarni bugungi kunimizda Ukraina, Misr, Suriya, Liviya, Tunis kabi Arab davlatlaridagi ichki nizolar, fuqarolar urushi va oqibatda minglab begunohlarni qoni daryo bo'lib oqishida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston hukumatining mustaqillikning eng tahlikali kunlarida tutgan siyosiy yo'li, strategik qarashlari ham aynan yuqoridagi aks ta'sirlarni oldini olishga qaratilgan. Ayni ana shunday qat'iyat, jur'at, ichki va tashqi g'animlarimiz zo'r berib O'zbekistonda barqarorlikni yo'q qilishga, fuqarolar urushini keltirib chiqarishga urinayotgan bir paytda uning sobit qadamligidan, har qanday ig'vogarliklarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rayotganligidan dalolat beradi. "Erk" demokratik partiyasi vakillari va ularning homiylari mamlakatda vujudga kelgan qiyinchiliklarni ro'kach qilib, har qanday yo'l bilan hokimiyat tepasiga chiqib olish uchun ochiqdan-ochiq kurash boshladilar. Ular ko'cha-ko'ylarda

mitinglar uyushtirib, ommaviy noroziliklarni keltirib chiqarishga harakat qildilar. Xalq saylagan deputatlarga ishonchsizlik bildirib, ularning iste'foga chiqishlarini talab qildilar. Ayni Tojikiston voqealarini takrorlashga intildilar. Demak, oldin shiorbozlik, mitingbozlik, Keyin katta maydonlarda va hukumat binolari oldida ochlik e'lon qilishlar, undan so'ng esa qurolni sihga solib qonuniy parlamentni barbod etish va nihoyat davlat to'ntarishini amalga oshirish. Aytish mumkinki, xuddi ana shunday tahlikali vaziyatlarda hukumat boshqaruv jilovini ozgina bo'shashtirganda, ikkilanish yoki sarosimaga tushganda Tojikistondagi voqealardan ham dahshatlirog'i yuz berishi mumkin edi. Lekin unday bo'lmadi. O'zbekiston hukumati qanchalik ta'na-dashnomlar yomg'iri tagida qolmasin, demokratiya kushandasi, diktatura hokimiyati degan malomatlarni eshitmasin, o'z yo'lida qat'iy turdi. Ikkilanmadi¹⁰.

“Erk” demokratik partiyasini tajovuzkorona harakatlari va siyosiy qo'poruvchilik faoliyati, ayniqsa, Prezident saylovlari kunlarida eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Bu partiya vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlarda, partiya yig'ilishlarida ehtirosga berilishlar, qonuniy hukumatni ochiqdan-ochiq badnom qilish va zo'ravonlik singari salbiy harakatlarni yaqqol namoyish qildilar. To'gridan-to'g'ri hukumat rahbarlariga turli yo'llar bilan g'oyaviy, siyosiy va ma'naviy zarba berishga urindilar. Prezident saylovlarida M.Solihning yetarli ovoz ololmasligi aniq edi. Bizningcha buni uning o'zi ham va tarafdorlari ham yaxshi bilishar edi. M.Solihning saylovda g'alaba qozonolmasligining o'ziga xos asoslari bor edi:

Birinchidan, u hali partiya rahbari va siyosiy yetakchi sifatida omma ichiga kirib ulgurmagan, xalqning alohida e'tiborini qozonmagan edi.

Ikkinchidan, “Erk” demokratik partiyasi dasturlari, partiya rahbariyatining omma orasidagi chiqishlari tom ma'noda jamiyatni tubdan isloh qilish va uni butunlay yangi o'zanga burib yuborishga qodir emasligini xalq yaxshi tushunib olgan edi. Partiya xulosalari, islohotlar uchun taklif etgan mulohazalarining

¹⁰ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –B. 5-6.

hayotiy jihatdan ham, ilmiy jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham yetukligiga hech kim kafolat bermas edi. Aksincha, ularning o'zlari ortiqcha shovqin-suron va dabdabalar bilan sun'iy ravishda o'z nufuzlarini oshirishga intilishardi.

Uchinchidan, Prezident Islom Karimov esa mamlakat jar yoqasiga borib qolgan eng qiyin va ziddiyatli paytlarda o'z iqtidorini ko'rsata olgan, o'z fikrining va g'oyasining to'g'riligiga xalqni ishontira olgan. Bu, ayniqsa, sobiq Ittifoq tarqalishi oldidan yuz bergan jiddiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, millatlararo nizolar, qonli to'qnashuvlar va, eng muhimi, Moskva bilan Toshkent o'rtasida ko'zga ko'rinmas kurashlar natijasida yaqqol ko'zga tashlangan edi. Xalq mamlakatga xuddi ana shunday qat'iyatli rahbar zarurligini, uni har jihatdan qo'llab-quvvatlash kerakligini anglab olgan edi. Saylovlar arafasida barcha siyosiy o'yinlar, jizzakiliklar, zarda qilishlar va boshqa hatti-harakatlar ayni ana shu hayotiy haqiqatni tan olmaslikdan, hokimiyatga egalik huruji tobora kuchayganidan, mansab va kursiga jon-jahdi bilan intilish jazavasidan kelib chiqqan edi¹¹.

Ko'p nomzodli Prezident saylovlari bugungi hodisa emas. Bu jahon tajribasida bor va demokratik tamoyillar qaror topgan dunyoning juda ko'p mamlakatlarida qat'iy tartib va an'anaga aylangan voqelik. Biroq, ularda saylovlar yuksak siyosiy madaniyat, oshkora, ro'yi-rost faoliyat asosida o'tadi. Bir necha partiya, harakat va boshqa siyosiy guruhlar nomzodlari saylovda bir yo'la ishtirok etsalar-da, tabiiyki, ularning faqat bittasi Prezidentlikka saylanadi. Qolganlar esa yana go'yo hech narsa bo'lmaganday o'z faoliyatlarini davom ettiraveradilar. Umumiy manfaat –mamlakat va xalq manfaati yo'lida birlashib ketadilar. Ichki adovat, kek saqlash, oxir oqibatda esa davlat to'ntarishini amalga oshirishga bormaydilar. Bu o'sha nomzodlarning ham, ularni tarafdorlarining ham va umuman mamlakatda qaror topgan demokratik tamoyillarning ham barkamol ma'naviy qiyofasini, yuksak siyosiy madaniyatini belgilaydi.

¹¹Jo'rayevN. Tafakkurdagi evrilish. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 133

O'zbekiston siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritganiga qisqa davr bo'lganiga qaramay milliy davlatchilik sohasida amalga oshirgan ko'plab yutuqlarga erishdi. Milliy davlatchiligimiz sohasida erishilgan yutuqlarni quyidagilarda namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan – mustaqil O'zbekiston o'ziga xos va o'ziga mos davlat – huquqiy yo'li tanlab olindi. Davlat qurilish sohasida tanqidiy nuqtai nazarsiz avvalgidek qabul qiladigan qolip, siyosiy andozalar yo'q. Har bir davlat – betakror ijtimoiy hodisadir. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshash ikkita davlat bo'lmagani kabi, bizning milliy davlatchiligimiz ham xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilidir. Bundan tashqari, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida demokratiya qadriyatlarini, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyoti barpo etishni, xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylanishini o'zi uchun ustuvor qadriyat sifatida tanladi.

Ikkinchidan, yangi o'zbek davlatchiligining qaror topish jarayonida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va unga xos bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari tugatildi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish va tartibga solishning ko'pgina tuzilmalari barham toptirildi. Ular totalitar tuzumning, o'ta markazlashtirilgan rejalash taqsimlashga asoslangan iqtisodiyotning ustunlari edi. Bu jarayon murakkab sharoitlarda ro'y berdi. Chunki amaliy ish yurita olmaydigan, ko'pincha mas'uliyatsiz va ekstremistik kayfiyatdagi kalondimog' muxolifat demokratiya g'oyalarini bayroq qilib, o'zining xatti-harakatlari bilan jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarishga urindi. Bundan tashqari, hamdo'stlik doirasida integratsiyani chuqurlashtirish shiori ostida milliy suverenitetning qaror topishga xalaqit berishlar ham yangi davlatchilikning vujudga kelish jarayonida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Uchinchidan, respublika uzoq tarixiy tajribalarga, milliy an'analarga tayangan holda ilg'or mamlakatlar tajribasidagi ijobiy tomonlarni o'rganib, o'zining davlat idoralarini tubdan qayta tashkil qila boshladi. Bunda ayrim hollarda ilgari mavjud bo'lgan davlat organlari (shakl jihatdan) saqlab qolinib, yangi

sharoitga moslab sifat jihatdan o'zgartirishlar kiritish natijasida yangilangan bo'lsa (masalan, mahalliy vakillik organlari), ayrim davlat organlari, ya'ni ijroiya hokimiyati organlarining mutlaqo yangi turi hokimliklar ta'sis etildi.

To'rtinchidan, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, malakatimizning Konstitutsiyasi tashkil etilishi o'zbek parlamentining qonun ijodkorligi yuqori saviyada ekanligining amaldagi isboti bo'ldi. Shu bilan birgalikda asosiy qonunimiz mustaqil o'zbek davlatchiligini qaror toptirish yo'lida muhim tarixiy qadam bo'ldi. Yurtboshimiz ta'birilari bilan aytganda: "Konstitutsiya suveren davlatimizning qonunchilik – huquqiy negizini shakllantirishning asosiy poydevori, mustaqil davlatchiligimizning tamal toshi bo'ldi".¹²

Beshinchidan, O'zbekistonning davlat mustaqilligini amalda namayon qiladigan va ro'yobga chiqaradigan tashkiliy tuzilmalar tizimi shakllantirildi. Mudofaa va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirliklari, Milliy Xavfsizlik Xizmati, Davlat Bojxona va Soliq qo'mitalari tuzildi. Milliy armiya – O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi milliy davlatchilikning qaror toptirishdagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish, qimmatbaho metallar, Fan va Texnika qo'mitalari, Oliy Attestatsiya komissiyalari birinchi marta tashkil etildi. Bank tizimi tubdan qayta shakllantirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki ochildi. Mustaqil aviakompaniya, Axborot agentligi, kinokompaniya va boshqa umumdavlat xizmatlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Oltinchidan, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi. Hozir O'zbekistonni 191 dan ortiq davlat tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatilgan¹³.

Mamlakatimizda 88 chet davlat vakolatxonalari ro'yhatdan o'tgan, 24 hukumatlararo tashkilot va 13 nohukumat tashkilot ishlab turibdi. Qolaversa,

¹² Ozod Xusanov. Mustaqil va mahalliy hokimiyat. – Toshkent: Sharq, 1996. –B. 5.

¹³ Saidov.A.X. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – Toshkent: Sharq, 2000. –B. 10.

O'zbekistonning 40 dan ortiq chet el diplomatik vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston suveren davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib kirdi. Yurtboshimiz haqli ravishda aytganlaridek: "Biz uchun mustaqillik, o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki, avvalo o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir"¹⁴.

1992-yilning 8-dekabrida Respublika Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyada Respublikada Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyati – Oliy Majlis, davlat va hukumat boshlig'I – Prezident, oliy ijro va farmon beruvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi, joylarda davlat hokimiyatini boshqaruvini amalga oshiruvchilar – viloyat, shahar va tuman hokimiyatlari va kengashlari, sud hokimiyatini amalga oshiruvchilar Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, viloyat, shahar, tumanlarning sudlari va viloyat xo'jalik sudlari ekanligi o'z aksini topdi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, ko'plab qadimiy yohud yaqin o'tmishdagi davlatlarni tashkil topishi, uning qudrati, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarni faravon hayot kechirishini ta'minlashda, shubhasiz, davlat boshlig'i – siyosiy yetakchini o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etishi ayni haqiqat. O'zbekiston ham o'z mustaqilligiga erishish davrida siyosiy yetakchiga ehtiyoj sezgan. Xalqimizni murakkab davrdan olib chiqish mas'uliyatini mamlakatimizni birinchi prezidenti Islom Karimovga nasib etdi.

Islom Karimov hokimiyat boshqaruvini qo'lga olgan paytda O'zbekiston halokat yoqasiga kelib qolgan edi. Go'yo, endi hech kim fojiali voqealar oqimini

¹⁴ Karimov I.A.. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B.138.

orqaga qaytarolmaydiganga o'xshardi. U hokimiyat tepasiga mamlakatni balo-qazolardan saqlab qoladigan kishi sifatida keldi.

O'zbekistonning o'tish davridagi o'ziga xos yo'li va sezilarli muvaffaqiyatlari G'arbda Karimov o'z strategiyasini qaysi namunalardan ko'chirib olganligi haqidagi munozaralarga sabab bo'ldi. Karlayl bu strategiya Xitoy yo'lining nusxasi ekanligiga amin edi. U bunday deb yozdi: "Karimov Xitoy bo'ylab sayohat qilganida, bu davlat unda siyosiy va iqtisodiy model sifatida juda kata tassurot qoldirdi. Xitoyning avtoritarizmini qo'llab-quvvatlab, ayni vaqtda iqtisodiyot sohasida tajribalar o'tkaza olishi, aftidan, uning ongida model sifatida saqlanib qolgan va bu modelnini o'z mamlakati uchun tanlab olgan. Lekin u buni oshkora tan olmadi".

1.2. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllanishi.

Uzoq keskin kurashlardan so'ng mustaqillik kuniga ham yetib kelish nasib qildi. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillik tufayli demokratik jamiyat qurishni asosiy maqsad qilib belgilab oldi; milliy ma'naviy marosimizga, milliy davlatchilik sohasidagi qadriyatlarimizga tayangan holda o'ziga xos va mos taraqqiyotyo'lini tanladi hamda fuqarolik jamiyati qurilishi bilan bog'liq vazifalarni aniqlab oldi. O'zining ma'naviy qadriyatlariga, merosiga tayanmagan, uni hisobga olib umumbashariy qadriyatlar, tamoyillar bilan uyg'unlashtira olmagan jamiyatni haqiqiy demokratik jamiyat deb bo'lmaydi¹⁵.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi bilan bog'liq o'zgarishlarga, yutuq va muammolarga milliy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etgan holdagina to'g'ri baho berish mumkin. Bunga hech qachon boshqa bir mamlakatdagi demokratik jamiyat qurilishi tajribasidan kelib chiqib baho berib bo'lmaydi. Bunday yondashuv xolis emas. Chunki demokratik jamiyatni birob-bir mamlakatga qiyosan yagona andoza asosida qurib yoki boshqa xalqlarga uni ko'chirib o'rnatib bo'lmaydi. Demokratik jamiyat qurilishi o'zining xilma-xil milliy xususiyatlariga ega bo'ladi. Har bir xalq demokratiyani o'zining milliy-

¹⁵ O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2005. –B. 4.

madaniy merosi, siyosiy mentaliteti, fe'l-atvori, qadriyatlari asosida quradi hamda demokratiyani umumbashariy ma'no mazmunini boyitishga hissa qo'shadi. Demokratik jamiyat qurishda demokratiyani umumjahon e'tirof etilgan asosiy tamoyillari mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

- Erkin va adolatli saylovlar;
- Ochiq va hisobot beruvchi hukumat;
- Inson huquqlari ustuvorligi;
- Hokimiyat organlarini saylanib qo'yilishi;
- So'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi;
- Qonun ustuvorligi;
- Fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi;
- Tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berish burchliligi;
- Ko'ppartiyaviylik tuzumini mavjudligi;
- Umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlar o'tkazilishi;
- Mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarini mavjudligi;
- Siyosiy muxolifatning ochiq faoliyat ko'rsatishi;
- Jamiyatda plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligini kafolatlovchi qonunlarni mavjudligi hamda ularni amaliy hayotga joriy etish masalalari samarasini ortishi.¹⁶

Yuqorida keltirilgan tamoyillar bilan milliylikni uyg'unlashtirgan holda yangicha turmush-tarzi yaratish uchun mustaqilligimizning datlabki yillaridayoq harakat boshlandi. Buning uchun albatta butun boshli tizimni tubdan yangilash va qaytadan yaratishdek ulkan vazifa turar, unga juda katta kuch va vaqt talab qilinishi, bizningcha, tabiiy hol. Mana shunday progressiv o'zgarishlarni mahalliy

¹⁶ O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2005. –B. 126.

ijroiya hokimiyati organlarining qayta tashkil etilishi misolida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasiga sobiq ittifoqdan ko'pgina salbiy narsalar meros bo'lib qoldi. Shulardan biri hokimiyat organlaridagi, ayniqsa mahalliy ijro organlaridagi mas'uliyatsizlik, vakolatsizlik, aniqrog'i mahalliy organlardagi parokandalik edi. Ittifoqning oxirgi yillardagi oliy organlari faoliyatidagi ziddiyatlar tufayli mahalliy organlar dastlab o'z holiga tashlab qo'yildi, keyinchalik esa, ularni boshqarish, ularga rahbarlik qilish imkoniyati yo'qola boshladi. Ahvolni yaxshilash, mahalliy idoralar faoliyatini izga tushirish maqsadida bir necha tadbir o'tkazildi. Bu tadbirlarga xos xususiyat shulardan iborat bo'ldiki, ular avvalgidek butun ittifoq miqyosida emas, ayrim-ayrim hududlarda, shaharlarda o'tkazila boshladi. bu tadbirlarni o'tkazishni respublika o'z qo'liga ola boshladi.

Dastlab RSFSRda, aniqrog'i Moskva va Leningradda mahalliy ijro hokimiyatini qayta tashkil qilish ishlari amalga oshirildi. Shu davrga kelib uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan kollegial ijro organlari – Sovetlarning ijroiya komitetlari talabga javob bermay qoldi deb hisoblandi. Ularning o'rniga yakkaboshchilik asosida ish yuritadigan ijro organi – “mer” lavozimi o'rnatildi¹⁷. Ular Rossiyaning birinchi Prezidentini saylash bilan bir vaqtda shu shaharni aholisi tomonidan saylandi.

O'zbekiston Respublikasida ham ittifoq tarkibida turgan vaqtidayoq, davlat organlarining faoliyatini jonlantirish, takomillashtirish uchun tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, shu davrda eng zaif va vakolatsiz davlat organiga aylanib qolgan, uning faoliyatini barqarorlashtirmasdan turib maqsadga erishib bo'lmaydigan ijro organlari faoliyati, tizimini takomillashtirish choralari ko'rila boshlandi. Misol tariqasida, O'zbekiston sobiq ittifoqchi respublikalari orasida birinchi bo'lib 1990-yil martda Prezidentlik lavozimi ta'sis etganligini ko'rishimiz mumkin. Kollegial ijro organlari mamlakat hayotida tobora ortiqchalik qilmoqda edi. shu tufayli

¹⁷ Xusanov O. Mustaqil va mahalliy hokimiyat. – Toshkent: Sharq, 1996. –B. 26.

O'zbekistonda mahalliy ijro organlarining yangi turini yaratish zarurati vujudga keldi. Natijada O'zbekistonda birinchi marta Toshkent shahar hokimi lavozimi ta'sis etilib, u 1991-yil 29-dekabrda Toshkent aholisi tomonidan saylandi. Bu hokim institutini o'rnatish tajriba sifatida o'tkazilgan ish edi.

1992-yil 4-yanvarda, "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"¹⁸gi qonuni qabul qilinib, respublikaning hamma hududida mahalliy ijro hokimiyati organi sifatida hokim lavozimi ta'sis etildi. O'zbekistonda hokim lavozimi joriy qilinar ekan, u avval keltirib o'tganimiz Moskva va Leningrad shaharlarida ta'sis etilgan "mer" lavozimining nomini o'zgartirib respublika hayotiga tadbiq qilinmadi. Hokim mohiyati bilan Rossiya "mer"laridan farq qiladi. Yana bir muhim tomoni shundaki, ijro hokimiyati organi faoliyatida yakkaboshchilikning tiklanishi, o'zbek davlatchiligi milliy an'alarining tiklanishidadir. Amir Temur davridagi davlatchilikni ko'rsak ham ayrim hududlar, shaharlar hokimlar tomonidan boshqarilgan. Mashxur Ulug'bek ham o'z vaqtida, ma'lum muddat Toshkent hokimi bo'lib turgan. Hokimlarning davlat boshlig'I tomonidan tayinlanishi an'alarimizga mos tushganligi bois, bu tamoyil saqlanib qoldi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi, "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" – deb ataladi. Konstitutsiyada mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil vakillik va ijro hokimiyati organlariga bo'linishi belgilanadi. Bu organlarning tizimi, mavqei, vazifalari konstitutsiyaviy me'yorlar bilan mustahkamlab qo'yildi. Quyida mahalliy vakillik hokimiyati organlari tizimi xususida fikr yuritamiz.

Amaldagi konstitutsiyamiz qabul qilingunga qadar mahalliy vakillik organlari uch bo'g'inli tizimi mavjud bo'lib, ular: qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo'g'in; tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – o'rta bo'g'in va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari – yuqori bo'g'in hisoblanardi. Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki

¹⁸ O'zbekiston respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992, 3-son, 146-modda.

bo'g'inli tizimini va bu mahalliy davlat hokimiyat to'g'risidagi qonunda o'z ifodasini topdi. Ya'ni bu yerda qishloq, shaharcha, tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda mahalliy vakillik organining tashkil qilinmasligi huquqiy, iqtisodiy tomondan to'g'ri bo'ldi.

Qishloq, shaharchalarda davlat hokimiyati vakillik organing tuzilmasligini huquqiy tomondan to'g'riligi shundaki, bu ma'muriy-hududiy bo'laklar tuman tarkibiga kiradi. Ular bilan viloyat chegaralari juda yaqin shaharcha va qishloqlarning vakillik organlari hal qiladigan ishlarini tuman vakillik organlarida hal qilsa bo'ladi, boshqacha aytganda, tuman vakillik organlari hal qilishi mumkin bo'lgan masalalarni hal qilish uchun qishloq va shaharchalarda vakillik organlari tuzish shart emas. Bundan tashqari, qishloq va shaharchalarda hal qilinishi kerak bo'ladigan ishlarni ahamiyati, ish hajmi shu ishlarni albatta vakillik organi emas, davlatning boshqa organlari yoki o'zini-o'zi boshqarish organlari ham hal qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy tomondan oqilona yo'l tutilganligi shundaki, qonun me'yorlariga asosan mahalliy vakillik organlarining eng asosiy vakolatlaridan biri mahalliy byudjetni shakllantirish hisoblanadi. Kuchli byudjetga ega bo'lish uchun esa, vakillik organlariga bo'ysunadigan korxona, tashkilotlar shu khududda yetarli bo'lishi kerak. Qishloq, shaharchalardagi korxona va tashkilotlar aksariyat hollarda yuqori organlarga bo'ysunar edi va ular qishloq, shaharchalarning byudjetiga deyarli hech narsa tushmaydi. Natijada qishloq va shaharcha Kengashlari zaif, biron bir iqtisodiy muammolarni hal qila olmaydigan tashkilotga aylanib qoladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida esa ko'plab kishilarni qishloq, shaharcha Kengashlariga deputat bo'lib saylanishi maqsadga muvofiq emas.

Yana bir milliy davlatchiligimizga xos tuzilma – Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarini tashkil etilganidir. 1993-yil 2-sentabrda “Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun qabul qilindi¹⁹. Shuningdek, bu

¹⁹ Xusanov O. Mustaqil va mahalliy hokimiyat. – Toshkent: Sharq, 1996. –B. 63.

masalaga taaluqli ba'zi huquqiy me'yorlar 1992-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda ham o'z ifodasini topdi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz ko'rsatayotgan muhim o'zgarishlar jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish bilan birga, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishni jadallashtirish, O'zbekistonni dunyoning rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishiga qaratilgan. Davlat qonunlarida ifoda etilgan xalq irodasini o'zida mujassamlashtirib, mamlakatni modernizatsiya qilish, ya'ni zamonaviy talablarga to'la javob beradigan iqtisodiyotini shakllantirish, bozor infrastrukturasini yaratish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlar jarayonini jadallashtirib, amaliy ishlarni ro'yobga chiqarishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga rioya etib kelmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2005-yil 28-yanvar kuni parlament palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida belgilab berilgan asosiy yo'nalishlar va vazifalarni hayotga tatbiq etish bilan bog'liq izchil faoliyatni amalga oshirishdir²⁰. Davlatimiz rahbari ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Demokratiya va turli ochiq jamiyat modellarini eksport qilib bo'lmaganidek, davlat qurilishining universal loyihasini ham tashqaridan import qilish yoki tiqishtirish mumkin emas"²¹.

Yurtboshimizning ushbu fikri zamirida juda katta ma'no mujassam. Zotan, davlat qurilishi va boshqaruvi sohalarida olib borilayotgan islohotlar jarayonida qonun chiqaruvchi organ parlament roli va ta'sirini kuchaytirish, mamlakatimizda chinakam parlamentarizmni qaror toptirish, hokimiyat tizimining tarkibi hisoblangan. Qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish muhim mas'uliyatli vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatida qonun ustuvorligi ta'minlanishi, jamiyatning har bir a'zosi ongiga qonunlarni og'ishmay amal qilishi lozimligi singdirilishi, adolat tamoyiliga mos qonunlarda aks etgan huquqiy

²⁰ Rajabova M. Senat va sud huquq islohotlari. –Toshkent: Adolat, 2006. –B. 7.

²¹ Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –Toshkent: O'zbekiston, 2005. –B.29.

me'yorlar turmush tarzimiz, ahloq- odobimizning mazmun-mohiyatiga aylanishi kerak. Mamlakatimiz demokratik huquqiy davlat qurishning boshlang'ich davrini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirmoqda. "Lo'nda qilib aytganda, biz tadrijiy, ya'ni evolutsion izchillik xususiyatlariga ega bo'lgan islohot va o'zgarishlar tarafdorimiz"²². Bu jarayon aniq muddat, ma'lum bir ko'rsatma yoki topshiriq bilan chegaralanmagan. Chunki rivojlanishning o'zbek modeli bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qiladi²³.

Demokratik qadriyatlarga mos huquqiy davlat ijtimoiy adolat tantana qilgan fuqarolik jamiyatini to'la shakllantirish yo'lidagi eng dolzarb masala aholi huquqiy ongi va tafakkurini yanada yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy hayotni, ma'naviy-ahloqiy sohani isloh qilishdan iboratdir. Islohotlar jarayonida bu borada ham qator ishlar amalga oshirildi.. jumladan, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi" qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida aholining huquqiy bilimlarini davr talabi darajasiga ko'tarish, huquqoy tafakkuri va dunyoqarashini chuqurlashtirish hamda huquq sohalarini takomillashtirish yuzasidan talay tadbirlar amalga oshirildiki, natijada fuqarolarning intellektual darajasida sezilarli o'zgarish sezildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz, ayniqsa, istiqlol yillarida tarbiyalanib kamol topayotgan yoshlarning huquqiy tafakkurida yangilanish jarayoni qaror topayotgani, yangicha huquqiy ong shakllanayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ilmiy va amaliy bilimlarni puxta egallayotgan yosh avlod akademik litseylar, kollejlardan tortib, bakalavr, magistratura, aspiranturagacha bo'lgan ta'lim bosqichlarida tahsil olish, erkin fikr yuritish, tevarak atrofdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirish, mentalitetimizga yot g'oyalarga qarshi jamoatchilik fikrini uyg'otish, umuman olganda, jamiyatimizda sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga erishishda fidoiylilik ko'rsatmoqda.

²² Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –Toshkent: O'zbekiston, 2005. –B. 29.

²³ Rajabova M. Senat va sud huquq islohotlari. –Toshkent: Adolat, 2006. –B. 9.

Bugungi kunimizda jamiyatni demokratlashtirish va yangilanishdan, xususan, mamlakatni modernizatsiya qilishdan ko'zlangan bosh maqsad – islohotlarni amalga oshirish jarayonida hokimiyat tarmoqlari, davlat tuzilmalari yo'lida g'ov bo'lib turgab to'siqlarni bartaraf qilish orqali har bir insonga munosib turmush kechirish, o'z imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Bu borada albatta mamlakatdagi oliy vakillik organlari hamda qonun ijodkorlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bosqichma-bosqich siyosiy va iqtisodiy islohotlar yo'lidan bormoqda. Bu jarayonda islohotlarninig asosiy tashabbuskori davlat bo'lib qolyapti. Islohotlarni amalga oshirishdagi yutuqlar, qonunchilik bazasini izchil takomillashtirish va huquq me'yorlarini umumqabul qilingan xalqaro tamoyillar va amaliyotga muvofiq joriy etishni taqazo qiladi.. shu munosabat bilan 2004-yildan boshlab parlament islohotlari O'zbekistondagi siyosiy o'zgarishlarning siyosiy markaziy mavzusiga aylandi va mamlakat qonunchilik hokimiyatining millat taraqqiyotidagi rolini izchil amalga oshirishni asosiy vazifalaridan biri deb e'lon qildi. 2002-yilda milliy referendum o'tkazilishi natijasida mamlakat tarixida ilk bor ikki palatali parlament – Senat (yuqori palata) va qonunchilik palatasi (Quyi palata)dan iborat Oliy Majlis joriy etildi²⁴. 2007-yilda parlament islohotlarini davom ettirgan holda siyosiy partiyalarning mamlakatning yanada rivojlantirish va modernizatsiyalashdagi rolini mustahkamlashga qaratilgan konstitutsiyaviy qonunlar qabul qildi. 2008-yili “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish natijasida parlament faoliyatini takomillashtirish va jamiyatdagi o'rnini oshirishga qaratilgan qo'shimcha choralar ko'rildi²⁵.

Mamlakatimizda oliy davlat vakillik organi – qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z faoliyatini ikki palatali asosda amalga oshirishga kirishgani milliy davlatchilikni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi muhim

²⁴ www.uz.undp.org

²⁵ www.uz.undp.org

qadamlardan biridir. Aniqroq aytganda, yurtimizda ham dunyoning taraqqiy etgan davlatlari qatori tom ma'nodagi parlamentarizmga asos solindi. Rivojlangan unitary davlatlardan Yaponiya, Fransiya, Italiya, Ispaniyada, shuningdek, Federatsiyaga asoslangan AQSH, Meksika, Rossiya, Germaniya, Shvetsariya parlament ikki palatali asosda faoliyat yuritadi.

Jahondagi davlatlardan Senatni shakllantirishda turli usullardan foydalaniladi. Masalan, AQSH, Italiya, Yaponiya, Shvetsariya kabi davlatlarning to'g'ridan-to'g'ri saylov o'tkazish yo'li bilan tashkil etilsa, Fransiya bilvosita ovoz berish va respublikaning hududiy jamoa vakillari tarzida amalga oshiriladi. Belgiya va Irlandiyada esa saylov va tayinlash usullaridan foydalaniladi. Mamlakatimizda ham Senat a'zosi hududlardan vakil sifatida saylanish orqali, 16 nafari esa Prezident tomonidan tayinlash yo'li bilan senatdan egalladi²⁶.

Senator faoliyatini huquqiy asoslari xususida so'z yuritganda, senator o'z faoliyatini avvalambor, Konstitutsiya, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatining va Senat a'zosinining maqomi to'g'risida"gi va nihoyat "Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chiqarib olish to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq amalga oshiradi.

Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun 2002-yil 4-aprelida qabul qilingan bo'lib, unda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy tamoyillari belgilab berildi. Aynan shu Konstitutsiyaviy qonun orqali milliy qonunchilimizga Senat, Senat a'zolari yoki senator kabi yuridik atamalar kirib keldi. Unga ko'ra,

²⁶ Rajabova M. Senat va sud huquq islohotlari. –Toshkent: Adolat, 2006. –B. 15.

Senat hududiy vakillik palatasi bo'lib, u Senat a'zolaridan (senatorlardan) tarkib topadi.

2003-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan muhim o'zgarishlar, ya'ni Oliy Majlisning ikki palatali tizimga o'tkazilishi: yuqori palata – Senat va quyi palata – Qonunchilik palatasi tuzilishi hamda ularning vakolatlari bo'yicha kiritilgan o'zgarishlar navbatdagi siyosiy islohotlarning muhim bosqichi bo'ldi²⁷. Bu bosqich 2004-yil dekabr – 2005-yil yanvar oylarida mamlakatimizda ikki palatali parlament shakllanishi hamda 2007-2008-yillarda Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish bilan yakunlandi.

2010-yil 12-noyabr kuni bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”²⁸ning qabul qilinishi yurtimizda amalgam oshirilayotgan demokratik yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining qonuniy mantiqiy davomi bo'ldi hamda barcha sohalarning rivojlanishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Konsepsiyada O'zbekistonning mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan tajribasini xolisona ko'rib chiqish, uni baholash, tahlil etish, davlatning tadrijiy hamda bosqichma-bosqich taraqqiyoti bo'yicha tanlangan yo'lning qanchalik darajada hayotiyligi va to'g'ri ekani hamda shu yo'ldan bundan buyon ham o'gishmay qat'iyat bilan boorish zarurligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy

²⁷ Karimov I.A.. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimiz asosiy omilidir. –Toshkent: O'zbekiston, 2014. –B.42.

²⁸ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza). “Xalq so'zi” gazetasi, 2010-yil 13-noyabr.

omilidir” deb nomlangan ma’ruzasida²⁹. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatining rivojlantirish konsepsiyasining demokratik yangilanish va modernizatsiya jarayonlarida tutgan o’rni va roli yana bir marotaba ta’kidlandi³⁰.

²⁹ Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug’ kelajagimiz asosiy omilidir. President Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Xalq so’zi” gazetasi, 2013-yil 7-dekabr.

³⁰ Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug’ kelajagimiz asosiy omilidir. –Toshkent: O’zbekiston, 2014. –B.46.

II BOB. Mustaqillik va milliy siyosiy qarashlar.

2.1. Fuqarolarni siyosiy ongini shakllantirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarini o'rni va faoliyati.

Ommaviy axborot vositalari haqida so'z boshlashdan avval jurnalistik faoliyatni O'zbekistondagi qisqa tarixiga nazar solsak.

O'zbekistonda jurnalistika XIX asrning 2-yarmida paydo bo'ldi. Uning tarixi Toshkentda chiqarilgan "Turkestanskiye vedemosti" va "Turkiston viloyatining gazetasi" kabi rasmiy davriy nashrlardan boshlanadi³¹. XX asrning 2-o'nyilligida O'zbekistonda asosiy e'tiborni taraqqiyotni ta'minlashga qodir ma'rifatli insonlarni xususiy-milliy gazeta va jurnallar ("Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oyina" va boshqalar) ko'rsatdi. Sho'ro tuzumi davrida O'zbekistonda davriy matbuot tarmog'I respublika, viloyat va tuman miqyosida chiqadigan umumsiyosiy tarmoq gazetalari, shuningdek, yangi jurnallar hisobiga kengaydi, ayni paytda O'zbekistonda radiojurnalistika va telejurnalistika ham tarkib topdi³². Lekin bular mustabid tuzum ko'zlagan siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilishga mahkum edi. Jurnalistika tizimining shakllanish jarayonida respublikada journalist ixtisosi bo'yicha maxsus oliy ta'limga ham asos solindi. 1949-yil O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultet qoshida oliy ma'lumotli jurnalistlar tayyorlaydigan maxsus bo'lim tashkil qilindi. Bu bo'lim 1967-yilda mustaqil fakultetga aylantirildi.

So'z va matbuot erkinligi inson huquqlarining tarkibiy qismi bo'lib, uning darajasi jamiyatda demokratiya nechog'lik ekanini ko'zgu kabi o'zida tiniq aks ettirishi barchaga ma'lum. Qolaversa, u fuqarolarni jamiyatni turli jabhalarida sodir bo'layotgan voqeliklarni holis, tezkorlik bilan yetkazib berish vazifasini bajaradi. Ana shu bois butun dunyo xalqlari so'z va matbuot erkinligini g'oyat qadrlaydi.

³¹ Jurnalistlar huquqiy savodxonligi muammolari ommaviy axborot vositalari va huquq. –Toshkent: 2003. –B. 37.

³² www.uzwikipedia.org

O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirdi. Bu borada asosiy vazifa – mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televideniya, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat.

Ko'p yillar davomida istibdod changali bo'lgan, endigina milliy mustaqilligini qo'lga kiritib, davlatchilik asoslari, jumladan ommaviy axborot vositalari tizimi shakllanishi jarayonini boshdan kechirayotgan xalqimiz uchun ham so'z va matbuot erkinligi qadri o'zgachadir.

O'zbekiston istiqlolning dastlabki kunlaridan demokratik, fuqarolik jamiyati, dunyoviy davlat barpo etishni maqsad qilib qo'ydi. Jahondagi barcha xalqlar bilan teng va manfaatli hamkorlik qilishga kirishdi. Bugun uning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori tobora tobora ortib bormoqda. Bunda o'zbek milliy matbuotining, qolaversa, mamlakatimizda akkreditatsiya qilingan xorij ommaviy axborot vositalarining ham o'ziga xos xissasi bor. Qolaversa, birinchi navbatda sohaning huquqiy bazasiga e'tibor qaratildi va rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish boshlandi. Ommaviy axborot vositalarining xalqaro huquqiy asoslari bu Inson huquqlari xalqaro umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi normalardir. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi qonunlar qabul qilindi:³³

- “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonun (2007-yil 15-yanvar);

³³ www.lex.uz

- “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to’g’risida”gi Qonun (1997-yil 24-aprel);
- “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to’g’risida”gi Qonun (1997-yil 24-aprel);
- “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida”gi Qonun (2002-yil 12-dekabr);
- “Noshirlik faoliyati to’g’risida”gi Qonun (1996-yil 30-avgust);
- “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi Qonun (2006-yil 20-iyul);
- “Reklama to’g’risida”gi Qonun (1998-yil 25-dekabr);
- “Axborotlashtirish to’g’risida”gi Qonun (1993-yil 7-may);
- “Telkomunikatsiyalar to’g’risida”gi Qonun (1999-yil 20-avgust)³⁴

O’zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari huquqiy bazasini yaratilishida Respublika Konstitutsiyasiga asosiy manba sifatida tayanildi. Konstitutsiyamizning 67-moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotni to’g’riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo’l qo’yilmaydi”³⁵ deb belgilab qo’yilgani ommaviy axborot vositalarining mutlaq qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi. Mana shunday keng imkoniyatlar bois ommaviy axborot vositalari soni bugungi kunda 1372 tani (01.01.2014y. holatiga) tashkil etadi. Bular 709 ta gazeta, 289 ta jurnal va 95 ta TV va radiolardir. Bu raqamlarni o’tgan yillardagi nisbatiga nazar tashlasak, xususan 1990-yilda O’zbekistonda 290 ta gazeta va jurnallar, 2003-yil, ya’ni oradan 13-yil o’tgach gazeta va jurnallar soni 820 tani³⁶ tashkil qilgan. Ko’rinib turibdiki, har o’n yillikda Televideniya, radio, gazeta va jurnallarimiz soni ikki, uch barobar ko’payganini ko’rishimiz mumkin. Albatta, nashrlar sonini ortishi bevosita demokratiyani shunga muvofiq tarzda yuksalishini anglatmaydi.

³⁴ www.ziynet.uz.

³⁵ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O’zbekiston, 1993. –B. 15.

³⁶ Jurnalistlar huquqiy savodxonligi muammolari ommaviy axborot vositalari va huquq. –Toshkent: 2003. –B. 37.

Lekin har qanday holatda ham gazeta va jurnallar ko'payishi, ularni o'quvchilar olib o'qiyotgani, undagi fikrlar dunyosi, dunyoqarashi o'sayotganligiga xizmat qilayotganligi baribir quvonchli hodisa.

Matbuotimizda yangi jihat – xususiy nashrlar sonini ortib, o'ziga xos mushtariylarga ega bo'lib borayotganidir. Matbuotimiz haqiqiy erkinligi yurtimizda kichik biznes va o'rta biznes rivoji, moliyaviy mustaqil ana shunday nashrlar ortishi barobarida yanada mustahkamlanadi deb o'ylayman. Garchi bunday nashrlar hozircha ko'ngilochar, reklama nashrlari bo'lsa-da, ular moliyaviy barqarorlik asosida ijtimoiy-siyosiy nashrlarga aylanishi ehtimoli uzoq emas. Ba'zan qog'oz tanqisligi paytida nashrlar sonini qisqartirish kerak, degan keskin fikrlar bildirilmoqda. Jahon tajribasi bu jarayonga ortiqcha aralashuvdan tiyilish maqbulligini, bu vaqtdincha hol bo'lib, bozor munosabatlari va raqobat muhitining o'zi uni nisbiy barqarorlikka keltirishini ko'rsatadi. Xatto Yaponiyada ham urushdan keying yillarda nashrlar soni ortishi kuzatilgan va ular soni ma'lum vaqtdan so'ng bozorda kuchli nashrlar qolishi evaziga kamaygan. Biz gohida nashrlar soni bilan maqtanib, aholi jon boshiga uning adadi qanchadan to'g'ri kelayotganini unutib qo'yamiz. Bizningcha mutaxassislar ayni shu muammolar yuzasidan muhim dastur ishlab chiqsalar, o'ylaymizki sohaning istiqbolini ta'min etgan bo'lishar edi.

Mamlakatimizda televideniya, radio, gazeta va jurnallar tashkil qilinishi yaxshi yo'lga qo'yilganligi xususidagi fikrimizni, ularni yillar davomidagi o'sish ko'rsatgichlari dalillaydi. OAVning qator funksiyalaridan biri aholi siyosiy ongini shakllantirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni ko'zda tutadi. Ammo kezi kelganda aytish kerakki, ba'zan OAV orqali berilayotgan ayrim materiallarda aholiga xolis axborot berishni ko'zlasada, pirovardida qator kasbiy kamchiliklarga yo'l qo'yib afkor omma zehniyatida berilgan ma'lumotni no'to'g'ri talqin qilishga sababchi ko'plab omillarni ko'rish mumkin. Biz bunda jurnalistlarimizni professional mahoratlarini shubha ostiga qo'ymoqchi emasmiz, balki ularni huquqiy savodxonlik masalalari biroz oqsaganini inkor etolmaymiz. Bunga tajribadan bir necha misol keltirsak. 1993-yil 13-aprelda xalq deputatlari

Surxondaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tgan, shu sessiya haqidagi "Adolat mezonini buzilsa..." – degan maqolada "O'zbekiston Prezidenti qonuniy vakolatidan foydalanib, Surxondaryo viloyati hokimligiga Jo'ra Nuraliyevni, hokimni birinchi o'rinbosari lavozimiga Jovbo'ri Abdulhakimovni tavsiya etdi. Viloyat xalq deputatlari bu ikki nomzodni yuksak lavozimga yakdillik bilan saylashdi"³⁷, - deb yozildi. Surxondaryoning avvalgi hokimini lavozimidan ozod qilish va yangi hokimni tayinlash haqidagi Prezident Farmoni 1993-yil 15-aprelda chiqqan³⁸. Shu misolda ahamiyatsiz bo'lsa-da, qonun bilan o'rnatilgan qoidalar buzilganini ko'ramiz. Birinchidan, aytilyaptiki, Prezident o'zini konstitutsion vakolatidan foydalanib, hokim lavozimiga nomzod tavsiya etdi va nomzod yakdillik bilan saylandi. Konstitutsiyada esa Prezidentga nomzod tavsiya etish emas, to'g'ridan-to'g'ri tayinlash huquqi berilgan, tayinlash tavsiya etishdan ko'ra kuchli huquqdir. Shuning uchun yuqoridagi hokim lavozimiga tayinlanishi Prezidentni vakolatini kuchsizlantirish deb hisoblaymiz. Konstitutsiyada hokimni sessiyada saylash to'g'risida umuman gap yo'q, u yerda Prezident tomonidan tayinlangan hokim tasdiqlash haqida qoida bor. Hokim sessiyada saylandi degan hukm qonunga ziddir. Sessiya o'tkazilgan muddat bilan hokimni tayinlash haqidagi farmon chiqqan muddat ham konstitutsiyaviy holatga teskaridir, aksincha bo'lishi kerak.

Keltirilgan misolda miqyosi jihatdan u qadar katta bo'lmagan elementar xatolik border, biroq bunday xatoni oqibati, masshtabi katta bo'lishligini ehtimoldan soqit qilolmaymiz. Avvalo, jurnalistni xatosi xalq nazdida faqatgina yakka shaxsni xatosi deya qabul qilinmaydi. Balki butun boshli tahririyatni mas'uliyatsiz deb ayblashi turgan gap. Qolaversa, endigina siyosiy jarayonlarni o'rganayotgan, boshqacharoq qilib aytganda, siyosiy dunyoqarashida "ijtimoiylashuv" jarayoni sodir bo'layotgan kishida dastlabki qabul qilgan informatsiyasi o'zgarmaslik xususiyatiga ega bo'lishi, buning ortidan turli

³⁷ Xalq so'zi, 1993-yil 16-aprel.

³⁸ Xalq so'zi, 1993-yil 16-aprel.

chalkashliklar, tushunmasliklar kelib chiqishi uning avval boshdanoq ilmiy yondashuvi xatoliklar ustiga qurilishi bilan belgilanishi mumkin. “Shuni tan olish kerakki, biz mustabid tuzum merosi va aqidalaridan, uning mafkurasi, ma’muriy nazorati va senzurasidan juda katta qiyinchilik bilan xalos bo’lyapmiz – deya ommaviy axborot vositalari haqidagi fikrini davom ettirib prezidentimiz Islom Karimov – haligacha jurnalistlar faoliyatida o’z-o’zini senzura qilish, yuqoridan buyruq kutish kayfiyatlari sezilib turibdi.

Ayni paytda, shuni ham qayd etish zarurki, axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o’z fikri va g’oyalarini, sodir bo’layotgan voqealarga munosabatga erkin fikrini bayon etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to’g’risida so’z yuritib bo’lmaydi, degan tushuncha jamoatchilik o’rtasida tobora kuchayib mustahkamlanib bormoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta’kidlandi.

Birinchidan – avvalo, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta’minlash kerak. Bu ularning mustaqil faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun asosiy omil bo’lishi lozim.

Biz matbuot va axborot erkinligining kafolatini bozor munosabatlari, axborot maydonida sog’lom raqobat tamoyillarining rivojlanishida ko’ramiz. Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalarini qo’llab-quvvatlash bo’yicha mustaqil jamoatchilik fondi tuzish fursati yetdi. Bu fondning tashkil etilishi mamlakatimizda iqtisodiy jihatdan o’zini o’zi ta’minlay oladigan, bosma va boshqa turdagi, shu jumladan, xususiy axborot vositalarini o’z ichiga oluvchi davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarining yaxlit tizimini shakllantirish jarayonini qo’llab-quvvatlashga yordam bergan bo’lar edi³⁹. Lekin bu – ommaviy axborot vositalari faqat ushbu fond mablag’lari hisobidan faoliyat yuritadi, degan

³⁹ Karimov I.A. O’zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –Toshkent:O’zbekiston, 2005. –B.37.

gap emas. Barchaga ayonki, ular o'z faoliyatlari hisobidan vujudga keladigan moliyaviy manbalarga ham ega bo'lishi lozim.

Ushbu fondning moliyaviy asosini ham ichki, ham tashqi, shuningdek, davlat va nodavlat tijorat tuzilmalarining homiylik mablag'lari tahskil etmog'I kerak. Fond mablag'lari nafaqat nodavlat elektron ommaviy va bosma ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mustahkamlashga, ayni paytda jurnalistlar va texnik hodimlarni tayyorlash va va qayta tayyorlash, malakasini oshirish kabi muhim masalalarga ham yo'naltirish darkor. Bu ish, jumladan, mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi ta'lim muassasalari va tele-radio jurnalistika markazlarida malaka oshirish, treninglar tashkil etish orqali amalga oshirilishi lozim.

Ikkinchidan, bugungi kunda davlat televideniyesi negizida jamoatchilik televideniyesi kanali bosqichma-bosqich shakllantirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Teleradio industriya bozorini rivojlantirish, tijorat va hududiy nodavlat tele-radiostudiyalarning faoliyat yuritish uchun zarur shart-sharoit yaratish, bu sohada g'oyalar va dasturlarning ijodiy raqobat muhitini vujudga kelishi bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqarish va amalga oshirish kerak.

Zamonaviy raqamli axborot texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish zarur. Afsuski, bugungi kunda viloyatlar telekanallari va studiyalarining moddiy-texnika bazasi va ukarda ishlayotgan hodimlarning kasb mahorati hali-beri zaifligicha qolmoqda. O'ylaymanki hozirgi axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishga hojat yo'q⁴⁰.

⁴⁰ Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –Toshkent: O'zbekiston, 2005. –B.38.

Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va unda sog'lom raqobatni shakllantirishni shartlaridan biri bu ularni mehnatlarini rag'batlantirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Mazkur tamoyilni hisobga olib respublikamizda jurnalistik faoliyatga doir turli nomlarda turfa tanlovlar tashkil etilib kelinmoqda. "Oltin qalam" respublika ko'rik tanlovi, "Ozod yurt to'lqinlari" kabi tanlovlar kabilar jurnalistlarni eng nufuzli tanlovi. "Oltin qalam" respublika tanlovida shu kunga qadar (2011-yilgi ma'lumot) 562 nomzod 7700 dan ortiq ijodiy ishi bilan ishtirok etib shulardan 29 kishi mukofotga sazovor bo'ldi.⁴¹ Bundan tashqari, 1996-yil 26-aprelda O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoni ta'sis etildi⁴².

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-fevralida "Jurnalist kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Mazkur hujjat respublikamizda jurnalist kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda dunyo andozalari darajasiga ko'tarish yo'lida g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda O'zbekiston Milliy Universiteti, Nukus Davlat Universiteti, O'zbekiston Jahon Tillari Universitetlari yuqori malakali jurnalist kadrlarni tayyorlashni qaysidir ma'noda uddalashmoqda. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida jurnalistlarni qayta tayyorlash Xalqaro ijtimoiy markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2.2. Istiqlol yillarida O'zbekistondagi siyosiy partiyalar, siyosiy qarashlar va siyosiy madaniyatning o'sish tendensiyalari.

Jamiyat siyosiy tizimi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda qatnashuvchi tashkilotlardan iborat. Siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi va uning asosiy bo'g'inlaridan biri esa siyosiy partiyalardir.

⁴¹ www.lex.uz

⁴² www.olan.uz

Partiya (lotincha Partio – bo'laman, ajrataman) – g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish maqsadida tuzilgan kishilar guruhi⁴³. 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasiga ko'ra, siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.

Siyosiy partiya – bu jamiyatdagi ma'lum bir guruhlar, toifalar, qatlamlarning qiziqishlarini aks ettiradigan hamda davlat hokimiyatini tashkil etish va davlat ishlarida qatnashish orqali ularni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadigan kishilar birligini ifodalaydi⁴⁴. Boshqacha aytganda, siyosiy partiyalar mamlakatdagi muayyan aholining yoki guruhlarining manfaatlarini, maqsadlarini va intilishlarini ifodalaydigan hamda qonuniy vositalar yordamida ularni davlat siyosati darajasiga ko'tara oladigan jamiyatdagi yagona kuch hisoblanadi. Aynan mana shu jihati, ya'ni siyosiy hayotdagi bevosita ishtiroki bilan o'z manfaatlarini ifodalashi orqali siyosiy partiyalar boshqa jamoat tashkilotlaridan farqlanadi.

Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy tizimining muhim ajralamas qismidir. Davlat va huquq nazariyasidan bizga ma'lumki, siyosiy tizim – bu xalq irodasiga muvofiq davlatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy institutlar, siyosiy normalar, prinsiplar, jarayonlarning o'zaro aloqadorligi va mushtarak yig'indisi. Ramziy ma'noda aytganda, siyosiy tizim davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi siyosiy muassasalar yoki tashkilotlarning harakatlanish maydonidir, ushbu siyosiy maydonning barqarorligini mustahkamlovchi asosiy poydevor – siyosi partiyalardir. Zero, siyosiy partiyalar hokimiyat konstitutsiyaviy-huquqiy tuzilishining barcha

⁴³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. – Toshkent: 2003. – B. 698.

⁴⁴ Bekov I, Abbosxo'jayev Sh. Siyosiy partiyalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2007. –B.5.

bo'g'inlariga singib ketgan holda nafaqat uni shakllantirishda, balki faoliyat yuritishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydilar.

Nodavlat tashkilotlar rivojlangan demokratik davlatlarning, ayniqsa, ularning ijtimoiy-siyosiy tizimining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Bunday tashkilotlar orasida siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy sohasida o'zining ko'p qirrali faoliyati hamda a'zolarining manfaatlarini ifodalash bilan boshqa nodavlat notijorat birlashmalaridan ajralib turadi.

Demak, siyosiy partiyalarning mavjud bo'lishi va real munosabatlarni aks ettirgan holda faoliyat ko'rsatishi – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish asosidir. Real ijtimoiy munosabatlar sharoitida siyosiy partiyalar haqiqiy demokratiya hamda fuqarolik jamiyati uchun bevosita va bilvosita omil bo'lib xizmat qiladi. Partiyalarning demokratiyani shakllantirishdagi bevosita ta'siri ularning jamoat tashkiloti ekanligidan kelib chiqadi, ya'ni siyosiy partiya xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish maqsadida aholining ijtimoiy fikrini ifodalovchi yirik xalq tashkiloti sifatida namoyon bo'ladi. Turli xil partiyalarning mavjud bo'lishi natijasida esa jamiyatda siyosiy fikr, qarashlarning xilma-xilligi (plyuralizm) vujudga keladi. "Plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning rangbarangligi ma'rifiy jamiyatga xos bo'lib, muayyan haqiqatni turlicha izohlash, tushunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi"⁴⁵.

Shunday ekan, hech bir demokratik huquqiy davlatning siyosiy tizimni siyosiy partiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, siyosiy partiyaga ega bo'lmagan davlatlar hozir ham mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, bunday davlatlar;

Birinchidan, siyosiy an'analari va siyosiy tuzilishi rivojlanmaydigan, fuqarolarning siyosiy intilishlarini ifodalovchi tashkilotlarga hali muhtoj bo'lmayotgan o'ziga xos aholisi bo'lgan davlatlardir (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Qatar, Ummon, Butan va boshqalar);

⁴⁵ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 19.

Ikkinchidan, harbiy to'ntarishlardan keyin zo'rlik bilan partiyalarning qonuniy faoliyatini tugatadigan totalitar rejim asosidagi davlatlar (hozirgi Nigeriya, 1970-1980-yillarda Prezident Pinochet boshqaruv davridagi Chili va boshq.).

Konstitutsiyamizning 12-moddasida belgilanganidek, mamlakatda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Bu esa o'z-o'zidan jamiyatda siyosiy plyuralizmninng vujudga kelishini kafolatlaydi. Konstitutsiyamizning 60-moddasidagi “Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tashkil etishda ishtirok etadilar”⁴⁶.

Hozirgi kunda respublikamizda Xalq Demokratik partiyasi, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi hamda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyalari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Barcha siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini Konstitutsiya va Qonun asosida amalga oshiradilar.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, mamlakatda haqiqiy ko'ppartiyaviylik tizimining paydo bo'lishi bugungi kunda mavjud bo'lgan har bir siyosiy partiyaning faoliyatiga bog'liq. Shuning uchun ham Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq ravshan harkat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim. Amalda ko'ppartiyaviylik – bu har xil kurash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydonidir”⁴⁷.

Jamiyatimizning turli sohalarida islohotlar natijasida erishilgan marralar va yutuqlarni e'tirof etgan holda, jamiyatni yanada demokratlashtirish, boshqaruvni

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –B. 24.

⁴⁷ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston. – B. 333.

takomillashtirish masalalarida ba'zi muhim masalalarning ahvoli va rivojlanish sur'atlarini mamlakatimiz oldida turgan ulug'vor vazifalardan kelib chiqadigan talablar darajasiga ko'tarish masalasi dolzarb bo'lmoqda. Bu avvalo jamiyat rivojida va uni boshqarishda siyosiy partiyalarning rolini jiddiy ko'tarish masalasidir. Bu yo'nalishda qo'yilgan yana bir muhim qadam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan parlamentimiz tomonidan qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonunidir.⁴⁸ Bu qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad siyosiy partiyalar fraksiyalarining davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli va ahamiyatini kuchaytirish, ularning funksiyalarini bajarishda samaradorlikni oshirish, jamiyat siyosiy hayotida fraksiyalar faoliyatini ta'minlash, aholi manfaatlarini bevosita fraksiyalar orqali qonunchilik darajasiga ko'tarish va hal qilish, partiya yo'nalishi va dasturini parlament va mahalliy kengashlarda mustahkamlash va barqarorlashtirish imkoniyatini shakllantirishdan iborat.

Endi siyosiy partiyalarning tashkil etish mexanizmi haqida biroz to'xtalsak. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga muvofiq siyosiy partiya tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi. Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim. Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab yeti kunlik muddatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasi

⁴⁸ Bekov I, Abbosxo'jayev Sh. Siyosiy partiyalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. –B.6.

chaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim. Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'I bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir. Siyosiy partiya ta'sis syezdida yoki konferensiyasida tuziladi. Ta'sis syezdi yoki konferensiyasi partiya Ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo'yiladigan organlarini tuziladi. Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olinadi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP) mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida shakllangan dastlabki partiyalardan hisoblanadi. Partiya 1991-yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis Qurultoyida tuzilgan. XDPning bosh maqsadi har bir oila va mehnat kishisining ularning millati, dini, e'tiqodi, ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishidan qat'iy nazar, moddiy va farovon hayot kechirishi uchun teng imkoniyatlar yaratish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash, ularning sha'ni va qadr-qimmatini, tinch hayot kechirishini himoya qilishni ta'minlashdan iboratdir.

Partiya o'zining asosiy ijtimoiy tayanchi ishchilar, qishloq mehnatkashlari, muhandis, texnik va ijodiy hodimlar, o'qituvchi va shifokorlar, xizmatchilar, o'quvchi yoshlar va pensionerlarning manfaatlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat, insonparvar, adolatli jamiyat qurishni izchil tarafdori sifatida harakat qiladi⁴⁹. Xalq Demokratik Partiyasining oliy rahbar organi bu Qurultoydir. Navbatdagi Qurultoylar partiya Markaziy Kengashi tomonidan 5 yilda kamida bir marta chaqiriladi. Qoida tariqasida Qurultoy Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga o'tkaziladigan saylovlarda Prezidentlikka va Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish davrida chaqiriladi.

“O'zbekiston ovozi”, “Голос Узбекистана” gazetolari XDPning rasmiy nashri bo'lsa, www.uzbekistonovozi.uz hamda www.xdp.uz esa uning internetdagi rasmiy sayti hisoblanadi. O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi.

⁴⁹ Jo'rayev N., Fayzullayev T. O'zbekiston tarixi. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –B. 256.

Mazkur partiya mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil topgan partiyalardan biridir. U 1995-yil 18-fevralda Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi ta'sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning dasturi va Ustavi qabul qilingan. O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan 1995-yil 18-fevralida ro'yhatdan o'tgan.

Partiyaning maqsadi inson manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligi va O'zbekiston Respublikasida barcah millat va elatlarning umumiy manfaatiga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yetuk demokratik tamoyillarga asoslangan adolatli fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirok etishdir. Ijtimoiy adolat, erkinlik, birdamlik g'oyalarini ilgari suradi. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining g'oyaviy negizini sotsial demokratiyaning 3 asosiy tamoyili tashkil etadi. Bular siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy adolat tamoyillaridir.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi o'rtahol va ehtiyojmand aholi tabaqasiga tayanadi, ularning siyosiy va ijtimoiy irodalarini namoyon etishga intiladi. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy muhofaza etishga ko'maklashadi, ijtimoiy adolat tamoyillariga qat'iy amal qilib, ularning manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qiladi. Oliy organi bu Qurultoydir. Markaziy Kengash – Qurultoylar oralig'I davrida O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining markaziy rahbar organi hisoblanadi, partiya manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan ish ko'radi. Partiyaning 1995-yil 22-fevraldan boshlab nashr etilayotgan "Adolat" nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi va internetda www.adolat.uz rasmiy web sahifasi mavjud⁵⁰.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi. Mustaqillik yillarida tashkil topgan yosh partiyalardan yana biri bu O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidir. U 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu qurultoyda uning dasturi va ustavi qabul qilingan. Partiyaning asosiy maqsadi milliy yakdillikni ta'minlash va huquqiy davlat barpo etishdir. Partiyaning yana quyidagi maqsadlari mavjud:

⁵⁰ Bekov I, Abbosxo'jayev Sh. Siyosiy partiyalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2007. –B. 22.

- milliy an'analarimiz va xususiyatlarimizni inobatga olib fuqarolik jamiyati barpo etish;
- fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish;
- iqtisodiy sohada jahon bozoriga integratsiyalashuvni kuchaytirish uchun fermerlar, ishbilarmonlar, tadbirkorlarga erkin iqtisodiy makon yaratish, barqaror pul va valyuta tizimini yaratish;
- ma'naviy sohada o'zbek xalqining ma'naviy, madaniy, badiiy, ahloqiy merosini qaytadan tiklash;
- ta'lim sohasida keng islohotlarni amalga oshirish.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining rahbar organlari MTDP Markaziy Kengashi, MTDPning Markaziy Kengash Rayosati, MTDPning Nazorat-taftish komissiyasi hisoblanadi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 1995-yil 10-iyundan boshlab cho etilayotgan "Milliy tiklanish" haftalik gazetasi faoliyat ko'rsatadi⁵¹. www.milliytiklanish.uz web manzili partiyaning rasmiy sayti. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harkati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP) mamlakatimiz siyosiy sahnasiga kirib kelayotgan yangi siyosiy kuch hisoblanadi. 2003-yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan ta'sis Qurultoyida uning Nizomi va dasturi tasdiqlangan. 2003-yil 3-dekabrda Adliya Vazirligidan ro'yhatdan o'tgan. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umummilliy siyosiy tashkilot sifatida mulkdor qatlami, kichik va o'rta biznes vakillari, tadbirkorlar, ishbilarmonlar, fermer va dehqon xo'jaliklari vakillari, ijodkorlar, ilm ahli va ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari va boshqaruv hodimlari manfaatlarini ifodalaydi hamda himoya qiladi. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyat yaratish, ularning istiqbolini

⁵¹ Xusanov O. Mustaqil va mahalliy hokimiyat. – Toshkent: Sharq, 1996. –B. 45.

ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoya qilish va ertangi kunini ta'minlash;

- mamlakatning milliy manfaatlari taraqqiyotining strategik istiqbollari javob beradigan dasturini Konstitutsiya tamoyillariga suyanib boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun partiyaning kuch imkoniyatlarini safarbar etish;

- davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ishtirok etish; - Partiyaning siyosiy platformasi – Liberal-demokratik g'oya va qadryatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish, o'z safini kengaytirish. Shu g'oyalarni hayotga tadbiq qilishda fidoiylilik ko'rsatgan faollarni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatish va saylovchilar ishonchini qozongan o'z deputatlari zimmasiga davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarida vakillik vazifasini yuklash hamda ularning faoliyatini boshqarish.⁵²

Tadbirlorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi o'zining davriy nashri – “XXI asr” gazetasiga ega. Internetdan www.uzlidep.uz manzili orqali partiyaning rasmiy saytiga kirish mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimizning sobiq mustasbid tuzum davrida toptalgan haq-huquqlari, milliy an'ana, urf-odat va qadriyatlarimiz, o'zlikni anglash, adolat ustuvorligi asosida yashash hayotimiz mezoniga aylandi. Eng muhimi, mustaqillik har bir shaxsning o'z imkoniyatlarini real hayotda namoyon qilish uchun bebaho imkoniyat bo'ldi, inson ongi va tafakkuri, dunyoqarashini yuksaltiradigan omil vazifasini o'tamoqda. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik xalqimizning erkin va ozod, farovon yashashi uchun keng huquq va imkoniyat yaratdi.

⁵² Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Ustavi. –Toshkent: 2006. – B. 4-5.

Hayotimizda tobora ko'proq o'z natijasini berayotgan va xalqaro miqyosda e'tirof etilgan Konstitutsiyamiz o'z-o'zidan, osongina paydo bo'lgan emas. Asosiy qonunimiz – bu Prezidentimiz rahbarligida xalqimiz tomonidan mashaqqatli mehnatlar, kurash va iztiroblar evaziga yaratilgan siyosiy, huquqiy va marifiy sohadagi ijod mahsulidir. Aynan shu jarayonni bus-butun, to'liq idrok etish huquq subyekti bo'lgan fuqarolar va yoshlarimizning Oliy qonunimizga bo'lgan mehrini hamda hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizda nafaqat bugungi kundagi ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solindi, balki O'zbekistonning huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati sari rivojlanib borishining tamal toshini qo'yildi. Konstitutsiya mamlakatimiz demokratik qiyofasini belgilab berdi hamda barqaror taraqqiyotimizning mustahkam zamini bo'ldi.

Xulosa.

Bitiruv malakviy ishi mavzusini o'rganish davomida ayrim siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari faoliyati borasida ko'plab ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri olishga ham muvaffaq bo'ldim. Xususan, bitiruv oldi amaliyotimni O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi Namangan shahar kengashida o'tadim. Xalqning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish bugungi kunda eng dolzarb (aktual) muammolardan biridir. Boisi bugun biz dunyoni turli burchaklarida, xususan arab davlatlarida, undan keyin yevropaga yaqin hududda joylashgan Ukraina davlatlarida sodir bo'layotgan siyosiy bo'xronlarni kelib chiqishining eng katta sabablaridan biri sifatida aholining siyosiy-huquqiy madaniyati bilan bog'lamoqchimiz. Bunday xulosaga kelishimga albatta shaxsiy kuzatuvlarim, monitoringlarim natijasi sifatida qaralishini xohlardim va shu bilan birga ayrim mulohazalarimni o'rtoqlashmoqchiman.

Arab davlatlari, xususan Misr, Suriya, Liviya. Tunis mamlakatlarida 2011-yildan beri siyosiy bo'xron davom etmoqda. Avvaliga iqtidordagi hokimiyatni ag'darib, o'rniga demokratik an'analar asosida faoliyat yuritadigan davlat barpo etish va hokimiyat tepasiga yangi xalq saylagan president olib kelish istagida bo'lgan arablarni, orzulari chippakka chiqdi. Tunisda Zino al Obidin Ben Alining to'ntarilishi, Misrda Husni Muborak rejimi barham topishi, Liviyada Muammar Kaddafiy hukmronligi tugatilish barobarinda hukmdorni o'zi esa noqonuniy qatl etilishi (o'ldirilishi) oddiy arablar uchun hech qanday farovonlik va hech qanday demokratik tuzum olib kelmadi. Qaytanga xalq boshiga mislsiz kulfat-u talofat, ne-ne zabardast, o'ktam yigitlar halokati bilan tugadi. Yoki Suriyadagi prezident Bashar al-Assad rejimiga qarshi ko'tarilgan xalq oqibatda o'z-o'ziga fuqarolik urushini tashkillashtirib oldi. Bunday fikrlarni bayon qilishimizdan maqsad, ushbu jarayonlarda aksariyat (deyarli barcha) ishtirokchilar real siyosiy jarayonlardan mutlqao bexabar edi. Ko'plab tahlilchilar fikriga murojaat qiladigan bo'lsak, arab davlatlarida inqilobga fuqarolarni yig'ishda ijtimoiy tarmoqlar facebook orqali odamlarni ko'chaga chiqib norozilik bildirilishiga chorlovlar bo'lgan. Bu chorlovlarda regulyatorlik rolini xorijiy davlatlardagi tor siyosiy doiralar, chet el

maxsus xizmatlari missiyalari turibdi deyishimizga ko'plab dalillar mavjud. Mana shunday tartibsizlik, xauslar uchun bir umumiy jihat mavjudki, ular boshqa hududga yoyilish tezligi va havfi borligi bu reallik. Mana birgina misol joriy yilning yanvar oyining ikkinchi yarmida Ukrainada boshlangan oddiy ko'cha namoyishlari, norozilik aksiyalari, iqtidordagi prezidentni taxtdan quvilishi bilan yakun topdi. Bu ham yetmagandek, Ukrainani Qrim muxtor respublikasi Rossiya Federatsiyasi tomonidan anneksiya qilinishi ortidadan kecha hududiy, mamlakat miqqiyosidagi konflikt, xalqaro miqyosdagi konfliktga aylandi. Rossiya Federatsiyasi va G'arb davlatlari Ukraina masalasidagi pozitsiyalari bir-biriga zidligi tufayli ikki tomon bir-birini jazolash maqsadida turli sanksiyalar joriy qilishlarini guvohi bo'lyapmiz. Albatta bularning ortida ham aholi, oddiy fuqaroni siyosiy bilimlari sayozligi, siyosiy onglilik darajasi me'yoridan ancha pastligida deb aytsak xato qilmagan bo'lamiz. Kuzatishlarim davomida yana shuni guvohi bo'ldimki, ba'zi ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari hamda o'zlarini mustaqil jurnalist, mustaqil OAV deb atayotganlar, arab davlatlaridagi, Ukrainagi voqealarni yoritishda bir yoqlama yondashayotganlari yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Jurnalistik etikadan kelib chiqqan holda xolisona axborotni yetkazish o'rniga ommaviy tartibsizliklarni fuqarolarni o'z haqqini talab qilganliklariga yoyish va bu orqali mana shunday voqeliklarni fikriy dastaklab bu orqali ularni masshtabini kengayishiga tom ma'noda o'z hissalarini qo'shishmoqda. Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tgan bo'lardimki, ko'chaga chiqib shovqin-suron ko'tarib, shiorbozliklar qilib, turli vayronagarchilik, urib-sindirish bu aholini ayrim "jurnalist"larimiz ataganidek siyosiy ongni yuksakligini ifoda etmaydi, aksincha, ularning siyosiy madaniyati qaloqligini namunasidir.

Zero siyosat bu san'at. Unga noziklik, ehtiyotkorlik bilan yondashmoq yaxshi samaradorlikka erishishning eng asosiy omilidir. Yuqoridagi holatlar bizni farovon turmushimizga kirib kelish ehtimoli yo'q emasligi barchamizni birdek tashvishlantirishi tabiiy. Bunda albatta mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zarur va shart. Mani fikrimcha mafkuraviy immunitetni shakllantirishda OAV hamda siyosiy partiyalarni roli yuqori deb o'ylayman. OAVda turli targ'ibot-

tashviqot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligini guvohi bo'lyapmiz, ammo siyosiy partiyalar bu borada biroz oqsayotganini ham yaxshirish kerak emas.

OAV hodimi o'z sohasi bo'yicha mutaxassislikni egallagandan so'nggina OAVda faoliyat yuritishi mumkin. Aytaylik, siz iqtisodchi yoki mexanik mutaxassisligiga ega bo'la turib jurnalist bo'lib keta olmaysiz (jurnalistikani sohalari paydo bo'lib sizni sohangizdagi mutaxassisga ehtiyoj bo'lmagunga qadar. Ammo ko'p hollarda ko'rdimki siyosiy partiyalarda ko'plashgan hodimlari mutaxassislari siyosiy soha tugul, ijtimoiy sohadan ham ancha uzoqda. Mafkura bo'limi rahbari bu iqtisod sohasi kadri, OAV bilan ishlash sektori mudiri yoki siyosiy o'quv markazi rahbari umuman siyosiy sohadan yiroqroq mutaxassisligiga ega. Balki, e'tizroz bo'lishi mumkin, partiya hodimining mutaxassisligi muhim ahamiyat kasb etmaydi, uning qobiliyati, salohiyatiga urg'u berilayotgandir. Ammo nima bo'lgan taqdirda ham xalqimizdagi bir maqol bor: "chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin".

Mazkur bitiruv malakaviy ishining tayyorlash asnosida, o'rganilayotgan mavzuimga daxldor ayrim takliflarimni bayon etmoqchidim. Ular quyidagilar:

- Avvalo, "Siyosiy madaniyat" nomli maxsus kurs tashkil qilinsada bakalavr kadrlarga maxsus kurs yoki fan sifatida o'qitilishi;

- Yosh avlodni axborot hurujlaridan himoyalash maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini jaddalashtirish lozim. Buning uchun OAV da, xususan hududiy televideniyalarda ijtimoiy-siyosiy mavzularda baxs-munozara tarzida teledasturlar tayyorlanib, bu teledasturlarda mavjud 4 siyosiy kuch, siyosiy partiyalarni yosh kadrlari ishtirok etib, o'z siyosiy nuqtai nazarini ifoda etsa, o'ylaymanki yoshlar qatlamlarida sog'lom g'oyaviy raqobat muhiti vujudga keladi;

- Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni monitoringini yaxshi yo'lga qo'yilishligi, ya'ni har bir qabul qilingan qonunlar, qonun osti hujjatlariga aholini turli qatlamlarida so'rovnoma o'tkazib, ularni munosabatini bilish keyingi yangi qonun

ishlab chiqish jarayonida turli qatlamlar manfaatlarini muvozanatga keltirgan tarzda ishlanishiga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I A. O'zbekistonning istiqlool va taraqqiyot yo'li. -Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 124 b.
2. Karimov I.A., Milliy istiqlool mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 148 b.
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 178 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: Sharq. 1997. – 248 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 348 b.

6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 256 b.
7. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkura xalqni–xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. -Toshkent: O'zbekiston. 1998. – 247 b.
8. Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –138 b.
9. Islom Karimov. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. –238 b.
10. Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston. – 489 b.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 178 b.
12. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish–mamlakatimiz taraqqiyotininng asosiy mezonidir. 19- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 345 b.
13. Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 144 b.
14. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
15. Karimov I.A. 2012–yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.// Xalq so'zi. 2012 yil 19 may
16. Karimov I.A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 312 b.
17. Karimov I.A. Mustaqillik–barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2013 yil 2 sentyabr.

18. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish–yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. O‘zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
19. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O‘zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqi. O‘zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.
21. Islom Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza). “Xalq so‘zi” gazetasi, 2010-yil 13-noyabr.
22. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 456 b.
23. Bekov I, Abbosxo‘jayev Sh. Siyosiy partiyalar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 165 b.
24. Saidov.A.X. Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – T: Sharq, 2000. –147 b.
25. Oleg Yakubov. Волчья стая. Кровавый след террора. Вече nashriyoti, 1999-yil. –B. 40-42.
26. Jumayev R.Z, Ubaydullayev U.A, Xo‘janov B.A. Konfliktologiya asoslari. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2000. – 137 b.
27. Jo‘rayev N. Tafakkurdagi evrilish. –Toshkent: Sharq, 2001. – 224 b.

- 28.Xusanov O. Mustaqil va mahalliy hokimiyat. – Toshkent: Sharq, 1996. – 125 b.
- 29.Saidov.A.X. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – Toshkent: Sharq, 2000. – 210 b.
- 30.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2005. – 174 b.
- 31.O'zbekiston respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992, 3-son, 146-modda.
- 32.Rajabova M. Senat va sud huquq islohotlari. –Toshkent: Adolat, 2006. – 97 b.
- 33.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 1993. – 98 b.
- 34.Jurnalistlar huquqiy savodxonligi muammolari ommaviy axborot vositalari va huquq. –Toshkent: 2003. – 137 b.
- 35.Xalq so'zi, 1993-yil 16-aprel.
- 36.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. – T: 2003. – B. 698.
- 37.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 219 b.
- 38.www.ziyonet.uz
- 39.www.ziyo.uz.
- 40.www.olam.uz.